

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Himoyaga ruxsat etildi»

Tabiiy fanlar fakul’teti dekani

_____ **dots. Nazarov A.**

“ ___ ” _____ 2019 yil

5140600 - Geografiya ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi

Turdaliyev Ibroxim Erali o’g’lining

**“GEOGRAFIYA FANI DARSLARI UChUN ELEKTRON
KARTOGRAFIK KATALOG YARATISH” mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»

Geografiya kafedrası
mudiri _____ g.f.n.,
dotsent X.Mirzaaxmedov

« ___ » _____ 2019 y.

BMI rahbari: o`qituvchi

B.Abduraxmonov

Namangan – 2019

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. O`RTA UMUMTA`LIM TIZIMI GEOGRAFIYA FANINING KARTOGRAFIK JIHATDAN TA`MINLANISHI TAHLILI	
1.1. Geografiya ta`limida kartografik qo`llanmalarning ahamiyati.....	7
1.2. Maktab geografik atlaslari va devoriy kartalar.....	21
1.3. Zamonaviy kartografik qo`llanmalar: interaktiv kartalar.....	31
II BOB. KARTOGRAFIK QO`LLANMALAR TAYYORLASH VA ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI	
2.1. Kartografik qo`llanmalar tayyorlashga majmualiy yondashuv.....	40
2.2. Tabiiy geografiya darslari uchun kartografik katalog yaratish.....	46
2.3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslari uchun kartografik katalog yaratish.....	53
XULOSA	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	59
ILOVALAR	

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining mavzusining dolzarbligi. Bugungi kunda pedagoglarning fan bo'yicha tegishli bilimlar, ko'nikmalar, malakalarga ega bo'lishlari hamda innovatsion faoliyat sohasida ham faol bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etib, innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etilmoqda. O'quvchilarning o'quv-bilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun ularning yangiliklarni amaliyotda qo'llashga tayyorgarligi, pedagogik yangiliklarni qabul qilishi, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyati va axborot kompetentligi shakllangan va rivojlanganligi, ijodkorligi kabi innovatsion yondashuv qobiliyati yuqori saviyada bo'lishi lozim.

Pedagog global axborot muhitida sohaga oid muhim ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli foydalana olish jihatini, ya'ni axborot kompetentligi oshirib borishi lozim. "... butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz."¹

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasi 4-asosiy yo'nalishi - Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bandlarida mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish hamda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va

¹ **Sh. Mirziyoyev.** Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq

innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish kabilar ko`zda tutilgan. Mazkur tadbirlarni amalga oshirishda biz bitiruvchilar-kelajakda mazkur sohada faoliyat olib boruvchi bizlar bevosita shu yo`nalishdagi islohotlarning ishtirokchisi sifatida o`z munosib hissamizni qo`shmog`imiz lozim.

Ta`lim-tarbiya tizimining zamon talablari asosida rivojlanishi va takomillashishi o`qitishni tashkillashtirishda ta`lim metodlari, shakllari va vositalarini yangilab borish bilan chambarchas bog`liqdir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ta`limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida o`qitishni tashkil etishning vositalarini, shakllarini, uslubiyotini yangilab va takomillashtirib borish zaruriyati paydo bo`lgan. Ushbu muammoni hal qilish o`quv jarayoniga ilg`or texnologiyalarni tadbiiq etish bilan uzviy bog`liqdir. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi ana shu texnologiyalarni tadqiq etish, ularni ta`lim jarayoniga tadbiiq etish shart-sharoitlari va imkoniyatlarini o`rganib chiqish, darslar uchun turli ta`lim vositalari, jumladan elektron kartografik qo`llanmalar (katalog) tayyorlash yo`llari va uslublarini hamda ulardan ta`lim jarayonida foydalanish bo`yicha yondashuvlarini ko`rsatib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishiga qo`yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ko`rgazmali ta`lim vositalaridan foydalanishning psixologik-pedagogik asoslarini o`rganish;
- ko`rgazmalilik mohiyati va uning shakllarini ochib berish;
- elektron kartalardan va ulardan foydalanish shart-sharoitlarini taxlil qilish;
- elektron katalog yaratish bo`yicha tajribalarni o`rganish;
- geografiya darslarida elektron kartalardan foydalanishning uslubiy sharoitlarini o`rganib chiqish va tanlash;
- fan dasturlari va darsliklari bo`limlari bo`yicha elektron kartografik katalog tayyorlash uchun dasturlar va uslubiyotni aniqlash;
- geografiya darslari uchun kartografik katalog tayyorlash.

Bitiruv ishining obyekt va predmeti. BMI obyekt elektron kartografik katalog tayyorlash uslublari, shakllari bo`lib, predmeti geografiyadan darslar va darsdan tashqari o`quv-tarbiyaviy jarayonlarda foydalaniladigan elektron kartografik katalog mazmuni hamda ularni tayyorlash shakl-uslublari hisoblanadi.

Bitiruv ishining ilmiy yangiligi. Geografiya darslari mavzulariga oid elektron kartografik katalog tayyorlandi hamda katalog tayyorlash va undan foydalanish bo`yicha uslubiy-tavsiyalar berildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. BMI natijalari uzluksiz geografiya ta`limi uchun elektron ta`lim vositalari yaratish va ulardan samarali foydalanish uslubiy-tavsiyasini beruvchi hamda ishni bajarish davomida olingan xulosalar o`qituvchilarning kompetentligini oshirishda, shuningdek, o`qituvchilarning ta`lim majmuali foydalanishda, shaxsiy axborot bazasini shakllantirish va to`ldirib borishda amaliy-uslubiy asos bo`lib xizmat qiladi. Shuningdek, katalog geografiya fani o`qituvchilariga, barcha yo`nalish talabalariga turli illyustrasiyalar tayyorlashda amaliy-uslubiy ko`rsatma sifatida xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishida quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Nazariy metodlar: ilmiy-nazariy va uslubiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar taxlili;

Empirik metodlar: pedagogik kuzatuv metodi, o`qituvchilar bilan suhbat metodi kabilar.

Tizimli metodlar: ma`lumotlarni grafik interpretatsiya qilish va qayta ishlash kabi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asosi. O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning nutqlari, Farmonlari, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ta`limni isloh qilish bilan bog`liq huquqiy va me`yoriy hujjatlar, xorijiy hamda mamlakatimiz yetakchi olimlarining ilmiy-uslubiy asarlari tashkil qiladi. Ta`limga texnologik yondashuv nazariyasi, pedagogik texnologiyalar haqida zamonaviy tasavvurlar bo`yicha

(Yu.K. Babanskiy, V.P. Bepalko², G.K. Selevko³, P.I. Pidkasistiy, V.K. Dyachenko), dasturlashriligan ta`limning nazariy asoslari bo`yicha (B.F. Skipier, N.A. Krauder, A.A. Kiveryalg, A.V. Batarshhev, O. Zaslavskaya, I.V. Levchenko), ta`limda shaxsni tarbiyalash g`oyasi yondashuvi bo`yicha (V.V. Serikov, I.S. Yakimanskaya, I.A. Zimnaya), ta`lim tizimida kompyuterlarni qo`llashga oid yondashuvlar (I. Mashbits⁴, I.V. Robert, N.M. Rozeiberg, B.S. Gershupskiy, I.V. Grebiev, L.I. Zemtsova, G.I. Datsyuk, N.V. Apatova) ham tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi bo`lib xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Mazkur ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini hamda ilovalarni o`z ichiga oladi. Uning umumiy hajmi 75 betdan iborat. Ishda tadqiqot ishiga oid turli rasmlar, ilovalar berilgan. Adabiyotlar ro`yxati 65 nomdagi manbalarni o`z ichiga oladi.

BMIning birinchi bobida o`rta umumta`lim tizimi geografiya fanining kartografik jihatdan ta`minlanishi taxlili, geografiya ta`limida kartografik qo`llanmalar ahamiyati taxliliga qaratilgan.

Ishning ikkinchi bobida kartografik qo`llanmalar tayyorlashga majmualiy yondashuv, kartografik qo`llanmalar tayyorlash va ulardan foydalanish metodikasi berilgan.

² Беспалько В.П., Слагаемые педагогической технологии, 1989.

³ Селевко Г.К., Современные образовательные технологии, 1998.

⁴ Машбиц Е.И. Психолого-педагогические проблемы компьютеризации обучения:— М.: Педагогика, 1988. — 192 с.

I BOB. O`RTA UMUMTA`LIM TIZIMI GEOGRAFIYA FANINING KARTOGRAFIK JIHATDAN TA`MINLANISHI TAHLILI

1.1. Geografiya ta`limida kartografik qo`llanmalar ahamiyati

Geografiya ta`limi rivojlanishining hozirgi bosqichida uning mazmuni o`quvchilarda dunyoning geografik manzarasi, kartografik savodxonlik, geografik madaniyatni shakllantirishga yo`naltirilgan.

Geografiya o`qituvchisining ilmiy-uslubiy tayyorgarligiga quyidagi talablar qo`yiladi:

- geografiya darslari, ekskursiyalar, darsdan va sinfdan tashqari mashg`ulotlarda o`qitishning samarali vositalari, uslublari hamda shakllaridan foydalanish;
- o`quvchilarni geografiya fani asoslari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, ma`naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini uyg`un tanlash orqali ta`lim samaradorligiga erishish;
- geografiya ta`limi mazmuni va pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish yo`llari, geografiya o`qitishda o`quvchilarni tarbiyalashning mazmuni, vositalari, metodlarini bilish va amalga oshirish;
- o`quvchilarni milliy mustaqillik tamoyillari va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ma`naviy va axloqiy fazilatlarini faollashtirish yo`llarini belgilash va amalga oshirish ko`nikmalarini egallash;
- geografik bilimlar asos bo`ladigan kasblar haqida tushuncha berish, o`quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo`llash;
- o`quvchilarning bilish faoliyatini pedagogik texnologiyalar talablari asosida maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarish, faollashtirish, bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish yo`llarini bilish;
- o`quvchilarning o`quv motivlarini faollashtirish ko`nikmalari;

▪ o`quvchilarda o`quv, amaliy, mehnat, ijodiy va mustaqil fikrlash ko`nikmalari, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirish yo`llarini bilish va amaliyotga qo`llash ko`nikmalarini egallagan bo`lishi talab etiladi.

Bilim va ko`nikmalarsiz mustaqil bilim olish faoliyati yuzaga kelmaydi. O`quv mashg`ulotlari davomida geografik bilimlarni talabalar guruhdoshlari va o`qituvchi bilan hamkorlikda ishlashi (bilim olishi, faoliyatda bo`lishi) bu bilimlar va ko`nikmalar egallash shart-sharoitiga ega bo`lishining asosini tashkil etadi. Bunday shart-sharoitlar seminar va amaliy mashg`ulotlarda yaratilishi lozim. Buning uchun mashg`ulotlarni tashkil etishda uning texnologik jihatlariga e`tibor qaratiladi.

Davlat ta`lim standartining maqsadi — umumiy o`rta ta`lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg`or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma`naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta`lim standartining vazifalari umumiy o`rta ta`lim mazmuni va sifatiga qo`yiladigan talablarni belgilash, milliy, umuminsoniy va ma`naviy qadriyatlar asosida o`quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish, o`quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o`rta ta`lim muassasalarining o`quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo`yiladigan talablarni belgilash kabilardan iborat.

Umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining umumta`lim fanlari bo`yicha malaka talablari tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni, o`quv fanining maqsad va vazifalarini hamda ta`lim muassasalarini bitiruvchilariga nisbatan qo`yiladigan talablarni belgilab beradi. Bulardan “Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi” — media manbalardan zarur ma`lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta`minlashni, media madaniyatga ega bo`lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. “Matematik savodxonlik, fan va texnika

yangiliklaridan xabardor bo`lish hamda foydalanish kompetensiyasi” — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o`qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta`lim fanlari orqali o`quvchilarda shakllantiriladi.

Umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim muassasalari uchun umumta`lim fanlaridan o`quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo`yiladigan umumiy talablarda o`qituvchi uchun metodik qo`llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o`qitish metodikasi, qo`shimcha sinov topshiriqlari va o`qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko`rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg`ulotlar, qo`shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko`rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o`quv nashri. Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o`quv faniga oid materiallarni davlat ta`lim standarti va o`quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o`quv fanini samarali o`zlashtirishga, o`quvchilarning mustaqil ta`lim olishiga ko`maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug`atlarni o`z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o`tkazish va mustahkamlashga yo`naltirilgan, o`quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo`shimcha materialga ega bo`lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o`z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta`lim resursi.

Umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limida tabiiyot va geografiya o`quv fanini o`qitishning asosiy maqsadi o`quvchilarda tayanch hamda tabiiyot va geografiya o`quv faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limida tabiiyot va geografiya fanini o`qitishning asosiy vazifalari o`quvchilarda atrofimizdagi olamga, o`z Vataniga muhabbat hissini uyg`otish, tabiatni asrash va

muhofaza qilish, nazariy bilimlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish, tabiatni kuzatish, tahlil qilish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish hamda ijtimoiy hayot va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi, hozirgi zamon talablari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi, shu bilan birga ulardan kundalik hayotlarida foydalana olishga o'rgatishdan iborat.

Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi bo'yicha A1 - Globus, dunyoning yarim sharlari xaritasi, O'zbekiston tabiiy va siyosiy xaritalaridan geografik obyektlarning joylashgan o'rnini ko'rsata oladi;

O'zbekistonning tabiiy xaritasidan o'zi yashaydigan hududni, mamlakatimizdagi eng baland tog'lar, tekisliklar, daryolar va boshqa geografik obyektlarni ko'rsata oladi.

A1+ - Globus va geografik xaritalarning masshtablari yordamida geografik Obyektlarning o'lchamlarini hisoblab chiqara oladi.

A2 - Globus va geografik xaritalar, o'quv atlaslari masshtabi, daraja to'ri (meridian va parallellar) yordamida geografik obyektlarning joylashgan o'ri va geografik koordinatalarini hamda o'lchamlarini aniqlay oladi;

joy tuzilishi va topografik xaritalardan milliy iqtisodiyotning turli sohalarida, joylarda yo'nalish olish, relyefni o'rganish maqsadlarida foydalana oladi;

mavzuli tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar yordamida hududlarning tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va xo'jaligini tavsiflay oladi;

o'quv atlaslari yordamida yozuvsiz xaritalarga materiklar va okeanlar, davlatlarning siyosiy, tabiiy (iqlim, tabiat zonalari va b.), iqtisodiy-ijtimoiy (sanoat, qishloq xo'jaligi va b.) xaritalarini tushira oladi.

A2+ - Xaritalarda qo'shimcha ma'lumot sifatida berilgan jadval, diagramma va grafiklar bilan ishlay oladi;

kartografik andozalarni meridian va parallellarning ko'rinishidan ajrata oladi;

geografik xaritalardan foydalanib hududlarning kompleks geografik profillarini tuza oladi.

B1 - geografik xaritalar yordamida dunyoning mintaqalari, Markaziy Osiyo va O'zbekistonning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga tavsif beradi va qiyosiy tahlil qila oladi.

B1+ - mavzuli xaritalar asosida ma'lum bir hududlarning tabiati, aholisi va xo'jaligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlay oladi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari tarkibida axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi bo'yicha A2 - turli geografik adabiyotlardan, xarita va atlaslardan samarali foydalanib, ular asosida axborotlarni tayyorlash, Internet saytlardan geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlarni topib, ularni tahlil qilish, kundalik ma'lumotlardan jumladan, jahon va mamlakat ichidagi yangiliklar haqidagi lavhalarning mohiyatini ang'lay olish, mediamadaniyatga rioya qilish. A2+ - Internet saytlardan geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlar asosida jahon va mamlakat ichidagi yangiliklar haqidagi lavhalarni topish.

Demak, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi tarkibida turli geografik adabiyotlardan, xarita va atlaslardan samarali foydalanib, ular asosida axborotlarni tayyorlash va geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlarni topib, ularni tahlil qilish, kundalik ma'lumotlardan jumladan, jahon va mamlakat ichidagi yangiliklar haqidagi lavhalarning mohiyatini ang'lay olish, mediamadaniyatga rioya qilish muhimdir.

Shu o'rinda kartografik qo'llanmalarning, ta'lim sohasining axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ahamiyati oshadi.

Hozirgi kunda ta'lim sohasining axborot kommunikatsion texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. O'qitish jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatining muhim omili bo'lib xizmat qilishi uchun, avvalambor, o'qituvchining texnologiyalar borasida savodxonligi kuchli bo'lishi, bugungi davr talabiga javob bo'la oladigan salohiyat egasi bo'lishi kerak.

Bugungi kunda nafaqat informatika darslarida, balki ta`lim sohasining barcha yo`nalishlarida, jumladan geografiya fanida axborot kommunikatsion texnologiyalardan keng qo`llanilmoqda. Bu esa o`qituvchilarning Power Point, Excel, Word va boshqa dasturlarida ishlab, turli mavzularga doir taqdimotlar, ishlanma ilovalar hamda qo`llanmalar yaratishlariga imkoniyat beryapti. AKTni bilish orqali o`qituvchilarimiz bugungi kunda dunyo bo`ylab ta`lim sohasida ro`y berayotgan yangiliklardan xabardor bo`lib, katta loyihalar ishtirokchisiga aylanmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va AKTlardan foydalanib olib borilayotgan darslar o`quvchilarni zeriktirmaydi, dars qiziqarli, vizual va noan`anaviy tarzda olib boriladi, darsda fanlararo bog`lanish imkoniyati yuzaga keladi. Bunday izlanishlar dars maqsadiga erishish uchun muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan, intellektual rivojlangan amaliy kasb-hunarga ega yoshlarga mamlakatning buyuk kelajagini ta`minlashi mumkin. Prezidentimiz ta`biri bilan aytganda, “Biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki, bu haqiqatni o`z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har millat va xalq uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yo`lidan chetda qolib ketishi muqarrar”⁵.

O`quvchilarning har tomonlama yetuk inson bo`lib yetishishida pedagoglarning o`rni beqiyos. Bugungi kun o`qituvchisi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan, har bir dars uchun o`zi ham kichik kashfiyotlar yaratishi kerak. Chunki bolalarni qirq besh daqiqalik dars mobaynida diqqatini faollashtirib bilim berish – bu murakkab jarayon. Shuning uchun bolalarga turli ko`rgazmalar, multimedialar va o`yinlar orqali ta`lim berish ularning nutqi rivojlanishiga va fikr doirasi kengayishiga imkon beradi. Eng asosiysi, darsda samaradorlikka erishiladi.

Multimedia vositalari asosida o`quvchilarga ta`lim berishni yo`lga qo`yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia bugungi kunda gurkirab

⁵

rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiya vositasi. Multimedia – bu dasturiy va texnikaviy vositalar asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (obyektlarning fazodagi harakati) effektlari asosida o`quv materiallarini o`quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko`rinishidir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma`lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarini interfaol usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo`lgan manba hisoblanadi.

Elektron o`quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va qo`shimcha ma`lumotlar bilan ta`minlashga yo`naltirilgan bo`ladi.

Ta`limni isloh qilish shunday elektron o`quv adabiyotlarini yaratishni talab qiladiki, ularning mavjud bo`lishi o`quvchilar va o`qituvchilar uchun, ta`lim muassasasi va uy sharoitida bir xil bo`lgan kompyuterli muhitni ta`minlashni taqozo etadi.

Elektron o`quv adabiyotlari bilan bog`liq bo`lgan ko`pgina tushunchalarning keng ma`nodagi izohli talqini kompyuter va axborot texnologiyalari rivojlanib borishi bilan yanada kengayib borayotgan bilimlar bilan to`ldirib borilmoqda.

«Uzluksiz ta`lim tizimida o`quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»ga muvofiq elektron darslik:

- kompyuter texnologiyasiga asoslangan o`quv uslubini qo`llashga, mustaqil ta`lim olishga hamda fanga oid o`quv materiallar, ilmiy ma`lumotlarning har tomonlama samarador o`zlashtirilishiga mo`ljallangan bo`lib:

-o`quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;

-o`quv materiallar verbal (matn) va ikki o`lchamli grafik shaklda;

-multimedia (multimedia-ko`p axborotli muhit) qo`llanmalar, ya`ni ma`lumot uch o`lchamli grafik ko`rinishida, ovoqli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;

-taktil (his qilinuvchi, seziluvchan) xususiyatga ega, o`quvchini kompyuter ekrani olamida o`zining stereo nusxalari tasvirlangan real olamga kirib borish va undagi obyektlarga nisbatan tasavvurni yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Elektron darslik - universal dasturiy ta`minot bo`lib, u muayyan kasbiy faoliyatning o`qish yoki axborot turlari va ularni qayta ishlashni avtomatlashtirishga imkon beradi.

O`qitish jarayonini qo`llab-quvvatlashning elektron vositalari sohasidagi tizimli izlanishi 30 yildan ko`proq tarixga ega. Bu vaqt davomida AQSh, Angliya, Fransiya, Yaponiya va boshqa bir qator davlatlarda axborot va telekommunikasion texnikaning turli tiplariga mo`ljallangan o`quv kompyuter tizimlari ishlab chiqilgan. Dastlab elektron vositalar mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlashni mustaqil olib boruvchi yirik sanoat korxonalarida, harbiy va fuqorolik tashkilotlarida qo`llanilgan. Xorijiy davlatlarda uslubiy va axborot dasturli vositalarni ishlab chiqarish uchun yuqori malakali psixologlar, maxsus fan o`qituvchilar, kompyuter dizaynerlari va boshqa mutaxassislar jalb etilgan. Yetakchi korxonalar va firmalari o`quv yurtlarida kompyuterli o`quv tizimlarini yaratish loyixalarini moliyalashtiradi va bu sohada izlanishlar olib boriladi. Ilk o`quv elektron dasturli vositalarni yaratish uchun bevosita dasturlashtirish texnologiyasidan foydalanilgan. Dasturchi sifatida ko`pincha oliy o`quv yurtlarining yuqori bosqich talablari va aspirantlari ishtirok etishgan. Keyinroq o`zida universal muhitni tasvirlaydigan, ularni o`quv-uslubiy materiallar bilan to`ldirish imkoniyatini beradigan qatlamlar yuzaga keldi. Qatlamlar bevosita dasturlashtirishni talab qilmasa ham yoki har bir o`qituvchi elektron o`quv dasturli vositani tayyorlay olsa ham bunday muhitlar keng tarqalmadi. Elektron o`quv vositalarini ishlab chiqish va foydalanish dastlab ikkita asosiy yo`nalish bo`yicha rivojlangan. Birinchi yo`nalish doirasida turli o`quv fanlari bo`yicha avtomatlashtirilgan ta`lim berish tizimlari ishlab chiqilib o`quv jarayoniga tadbiiq etilgan. Bunday tizimlar avtomatlashtirilgan ta`lim berish tizimlarining yadrosi bo`lib, ishlab chiquvchi pedagoglarga o`z o`quv-uslubiy materialni o`rganishni maxsuslashtirilgan tillar yoki boshqa asbobli vositalar yordamida dasturlashtirish imkonini beruvchi mualliflik tizimlari hisoblanadi. Kompyuter texnologiyasini ta`lim berishga joriy qilishning ikkinchi yo`nalishi turli sohalarni axborotlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog`liq. Ushbu yo`nalish doirasiga alohida o`quv

kompyuterli dasturlar, dasturlar paketlari, avtomatlashtirilgan tizimlar elementlari, obyektlar va jarayonlar tarkibini matematik modellashtirish kiradi. O`tgani asrning 80-yillardan boshlab o`qitishni axborotlashtirishning san`at intellekti ishlanmalarga asoslangan intellektual o`qitish tizimlarini yaratish va qo`llash bilan bog`liq bo`lgan yangi yo`nalishi intensiv rivojlanmoqda. Bunga o`xshash tizimlarining ma`lum qismi bo`lib ta`lim oluvchi, ta`lim berish jarayoni, fan sohasining modeli hisoblanib, uning asosida har bir o`quvchi uchun ta`lim berishning ratsional strategiyasi qurilishi mumkin. Intellektual ta`lim oluvchilarning bilimlar bazasi fan sohasida ham ekspert bilimlarni saqlashi mumkin. XX asrning 80-yillarida EHMlarning keng tarqalishi ta`lim sohasida nafaqat yangi texnikaviy, balki didaktik imkoniyatlarni ham yaratdi. EHMlarning asosiy afzalliklari ularning yaqinlashuvchanligi, diologi muloqotning oddiyligi va albatta, grafik imkoniyatlaridir. O`quv kompyuter tizimlarida grafik illyustrasiyalarni qo`llash faqat ta`lim oluvchiga axborotni uzatish tezligini oshirish va uni tushunish intensivligini oshirish imkoniyatiga berib qolmasdan, balki mutaxassis uchun muhim bo`lgan intuitsiya, kasbiy sezgirlik, obrazli fikrlash kabi sifatlarini ham rivojlantirishda qobiliyatli hisoblanadi. Xotira hajmi katta bo`lgan eslab qoluvchi qurilmalar va global telekommunikasion muhitlarning paydo bo`lishi o`z ishida gipermatnli, multi va gipermedia texnologiyalarni, virtual tizimlarni qo`llaydigan o`quv dasturi vositalarni yaratishga olib keladi. Bunday tizimlardan foydalanish lazerli kompakt disklarda elektron boshqaruvlar, ma`lumotnomalar, kitoblar va boshqalarni ko`plab adadlashtirish va yaratishga olib keldi. Shu bilan birga hozirgi vaqtda elektron o`quv vositalari sohasida uslubiy ishlanmalar texnologik ishlanmalardan keyinga qolmoqda. Bunday orta qolish tabiiydir, chunki uslubiy rejada o`qitishni qo`llab-quvvatlashning elektron vositalari psixologiya, pedagogika, matematika, informatika va boshqa ko`plab fanlar bilimlarini integrasiyalashuvini ta`minlaydi. Aynan uslubiyot muammolarini yechishdagi orqada qolish ta`limda yangi axborot va kommunikasion texnologiyalarni qo`llashning potensial va real imkoniyatlari orasidagi uzulishning asosiy sabablaridan biri bo`lib hisoblanadi. Ta`limni axborotlashtirish zamonaviy

bosqichning tendensiyalaridan biri bo`lib, elektron ma`lumotlarni, ensiklopediyalar, ta`lim beruvchi dasturlar, ta`lim oluvchilar bilimining avtomatik nazorat qilish vositalari, elektron o`quv nashri sifatida ko`rib chiqiladigan yagona dasturli uslubiy majmualaridagi elektron darsliklar, trenajerlar va virtual stendlar kabi elektron vositalari yaratishga intilish hisoblanadi. Taxliliy ishlarimiz natijalariga ko`ra mamlakatimiz o`quv yurtlariga kirib kelayotgan zamonaviy kompyuterlar asosida o`quv yurtlarini axborotlashtirishga intilish jarayoni ta`limda elektron darslik uchun yo`l ochib bermoqda. Ta`limni isloh qilish shunday elektron darslik yaratishni talab qiladiki, ularning mavjud bo`lishi o`quvchilar va o`qituvchilar uchun, auditoriya va uy sharoitida bir xil bo`lgan kompyuterli muhitni ta`minlashni taqazo etadi.

Ta`lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun darsni shunday tashkil etish nazarda tutiladiki, bunda o`quvchilar ilmiy bilimlarni amalda qo`llab, ongli va faol egallab oladigan, ijodiy tashabbuskorligi va o`quv faoliyatida mustaqilligi, tafakkuri, nutqi rivojlanadigan bo`lsin. Darslarda multimedia vositalaridan foydalanish, xuddi shunday talablarga javob beradi. Multimedia vositalaridan fanlarni o`qitish jarayonida foydalanish ta`lim sifatini va samarasini oshirishning eng qulay usullaridan biri hisoblanadi. Multimedia vositalari o`quvchiga yakka tartibda yondashish imkonini beradi va o`qituvchining bevosita ishtirokisiz ham o`quvchi materialni o`zlastirish mumkin bo`ladi.

Dars jarayonida o`quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bilan birgalikda fanga oid kompetensiyalarni ham shakllantirish lozim bo`ladi. Buning uchun o`qituvchi tomonidan pedagogik jarayonning eng samarali shakllari, o`qitishning innovatsion texnologiyalari, metodlari va o`quv-metodik materiallar tanlanishi hamda qo`llanishi kerak.

Pedagogik jarayonni oldindan loyihalashtirish, subyektlar faoliyatini rejalashtirish, o`quvchilarning mavjud bilim va qiziqishlariga ko`ra o`quv materiallari, didaktik mahsulotlar bilan ta`minlashi lozim.

Bugun insoniyat shiddat bilan o`zgarib borayotgan axborot asrida yashamoqda. Inson tafakkurining mahsuli bo`lgan axborot texnologiyalari fan,

texnika va ishlab chiqarishni taraqqiyotga xizmat qildirish bilan bir qatorda, insoniyat o'zi yaratgan ma'naviy va moddiy qadriyatlarni, tuzim va tizimlarni vayron qilish uchun ham qo'llamoqda. Axborot texnologiyalari inson qo'lida yaratuvchanlik, quroliga aylanib bormoqda, zamonaviy texnika va texnologiyalarni ezgu maqsadlarda ishlatish, yaratuvchanlik va qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirish kabi fazilatlarini esa inson o'z bolasida ilk yoshdanoq shakllantirishi lozim. Ta'lim-tarbiya ham shunga hamohang bo'lmog'i kerak.

Maktabda o'qitiladigan barcha fanlarning muvaffaqiyati o'qituvchining materialni ko'rgazmali va obrazli bayon qilishga, o'qitishning tasviriy va ovoqli texnikaviy vositalaridan foydalanib, jonli obrazlar yarata olishiga bog'liq. O'qituvchi haqiqiy manzarani aniq tasvirlab beruvchi ko'rgazmali vositalardan foydalanishni obrazli nutqi bilan uyg'unlashtira olsa, o'quv tarbiya faoliyatida eng yaxshi samaraga erishadi.

O'qitishning texnikaviy vositalari haqidagi ushbu qisqacha ma'lumotlarning o'ziyoq ularni ekran vositalari, ovoqli vositalar va ovoqli ekran vositalari kabi xillarga ajratishimizga imkon beradi. Ovozsiz kinofilmlar, diafilmlar va diapozitivlar ekran vositalaridir. Ovozni magnit plyonkasiga yozib olish va qayta eshittirish, gramplastinkalar, radio eshittirishlar ovoqli vositalarga kiradi. Ovoqli kinofilmlar, ovoqli diapozitiv va diafilmlar, o'quv tele eshittirishlari ovoqli ekran vositalari hisoblanadi. Bu vositalar boshqachasiga audiovizual vositalar (ovoqli ko'chish vositalari) deb ataladi.

O'qitishning fotografik vositalarini qisman maktab o'qituvchisining o'zi tayyorlay olishi mumkinligini tajriba ko'rsatdi. Buning uchun o'qituvchi darsda o'qitishning hozirgi texnikaviy vositalaridan foydalanishi lozimligini xis qilishi, unda uncha qiyin va ko'p bo'lmagan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'zlashtirib olish istagi bo'lishi lozim. Shuning uchun o'qitishning texnikaviy vositalarini o'zlashtirib olishni fotografiyaga oid elementar ma'lumotlardan boshlagan ma'qul, unki ko'pchilik ko'rgazmali ekran vositalari fotografiyaga asoslanib yaratilgan.

Hozirgi maktablarda o`qituvchining o`quv-tarbiyaviy ishlarida foydalanadigan o`qitish vositalari xillari ancha ko`paydi. O`qitishning ko`rgazmali bo`lishining pedagogik prinsipi o`qitish vositalarini doimo takomillashtirib borishni, maktabda Fan va texnika taraqqiyoti darajasiga mos keladigan ko`rgazmali qo`llanmalardan foydalanishni talab qiladi. O`qitish sifatini oshirish o`qitish metodikasining tubdan takomillashtirishning taqozo qiladi, o`qitish metodikasining takomillashtirilishi esa o`qituvchining turli-tuman texnikaviy vositalardan foydalanishga bog`liq.

Maktab o`qituvchisi va bolalar bog`chasining tarbiyachisi faqat doska va bo`r kabi o`qitish vositalari bilan kifoyalanib qolmasliklari kerak. Darsning ta`sirchan va tushunarli qilib o`tish hamda o`quvchilarning o`quv materialini tushunib olishlariga yordam berish uchun turli ko`rgazmali vositalardan foydalanish zarur.

Hozirgi maktablarda devorga osiladigan ko`rgazmali bosma qo`llanmalar (kartalar, jadvallar, rasmlar) yoki hajmiy qo`llanmalar (maketlar, asl namunalari, modellar, nusxalar) dan foydalanish hamda tajribalarni namoyish qilishdan tashqari muayyan, ba`zan, ancha murakkab texnikaviy qurilmalar va apparatlarni talab qiladigan o`qitish vositalaridan foydalanishga to`g`ri keladi.

Maktabda o`qitishning eng samarali metodlari o`qitishning texnikaviy vositalaridan foydalanish bilan bog`liq.

Hozirda o`qituvchilarning ko`pchiligi turli apparatlar bilan ishlash texnikasini egallash zaruriyatini tushunib oldilar. O`qituvchi har bir muayyan holda eng zarur ko`rgazmali qo`llanmadan ustalik bilan foydalana olish lozim. Shuning uchun u sinfda va sinfdan tashqari mashg`ulotlarda o`qitishning turli texnikaviy vositalari bilan ishlash metodikasi asoslarini bilishi zarur.

O`quv kinosi, ovoz texnikasi vositalari, fotografiya, televideniya, o`rgatuvchi mashinalar, kompyuterdan mohirlik bilan foydalanilsa, o`qituvchining o`quvchilarga ta`siri kuchayadi. O`quv-tarbiya jarayonida bu vositalardan keng foydalanish, birinchidan, o`qitishning ko`rgazmalarini oshiradi, o`quvchilarning materialni tushunib olishlarini osonlashtiradi; ikkinchidan, o`rganilayotgan hodisa

yoki fan haqida to'laroq va aniqroq ma'lumot berishga imkon beradi, bu esa bilim sifatini oshiradi; uchinchidan, bilim berishning yangi shakillarini topish va eskilarini takomillashtirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi. Ko'rgazmali o'qitish vositalarining bolalar xissiyotiga ta'sirini ham hisobga olish lozim.

O'quv-tarbiya ishlarida vazifasi, didaktik ahamiyati, shuningdek, mashg'ulotlarning maqsadi va xiliga qarab turli ko'rgazmali vositalar qo'llaniladi. Har bir ko'rgazmali qo'llanmaning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Masalan, obyektlarni uzoqroq kuzatib turish kerak bo'lgan hollarda kinofilmlarga nisbatan statik ekran qo'llanmalari (dipozitivlar, diafilmlar, epiproyektsiyalar) afzal hisoblanadi. Bunda ko'rinayotgan obyektning batafsil o'zlashtirishlari, tushunishlari va eslab qolishlari uchun qancha vaqt kerak bo'lsa, o'qituvchi har bir kartina, rasm, fotosurat, sxema va hokazolarni o'quvchilarga shuncha vaqt namoyish qilib turishi mumkin. O'qituvchining so'zlarini ko'rinadigan obrazlar bilan tushuntirish yoki bayon qilayotgan tushunchalarning mazmunini ochib berish uchun dars yoki mashg'ulotlarda shunday statik illyustratsiyalardan foydalaniladi.

Agar o'qituvchi o'quvchilarda harakatdagi xodisa va voqealar haqida tasavvur hosil qilmoqchi bo'lsa va shu harakat ayni hodisa va voqeaning xarakterli tomoni hisoblansa, u kinofilm namoyish qilgani ma'qul. Lekin bu kinomatografiya vositalari statik obyektlarga go'yo «jon kirgizgandek» bo'lgan hollarda kinofilmlardan keng foydalanib bo'lmaydi, degan so'z emas. O'quv kinofilmlarining yuqori badiiy afzalliklari bilan uyg'unlashgan dinamik (hodisalarni harakatda ko'rsatish), g'oyat ko'rgazmalilik va aniqlik bolalarning tafakkuri va ruhiyatiga ta'sir qiladi, ularning xulq-atvorlarida namoyon bo'ladigan sifatlardir.

Nihoyat, keyingi vaqtlarda paydo bo'lgan programmalashgan o'qitish va o'rgatuvchi mashinalar pedagogik jarayonga takomillashtirishlar kiritishga imkon beradi. Programmalangan o'qitish o'qituvchiga darsni ko'p qirrali va ta'sirchan o'tishiga yordam beradi hamda o'quvchilarning mustaqil bilib olish qobiliyatlarini aktivlashtiradi.

O`qitishning texnikaviy vositalari pedagogning mehnatini osonlashtiradi, o`quvchilarga ta`sirini kuchaytiradi, borgan sari ko`payib borayotgan bilimlar majmuini o`quvchilarga ancha qisqa muddatlarda yetkazgan holda hozirgi zamon saviyasida dars berishiga imkon beradi.

Texnikaviy vositalardan ma`lum fanga oid didaktika va metodika ishlab chiqilgan dars berish qoidalari va usullari asosida tuzilgan ma`lum dars yoki mashg`ulotlardagina foydalaniladi. Masalan, kinofilmdan foydalanib o`tkaziladigan atrofimizdagi olam darsi shunday vosita qo`llaniladigan nutqni rivojlantirish darsidan farq qiladi. Birinchi holda o`qituvchi o`quvchilarning e`tiborini filmni ko`rib bilish mohiyatiga (masalan, joyning relyefiga, o`simliklarning xususiyatiga va iqlim bilan bog`liqligiga) jalb qilsa, o`quvchilarning nutqini o`stirishga oid filmdan foydalanganda fikrning so`z bilan ifodalanishiga jalb qiladi. O`quvchilar ishlatishlari lozim bo`lgan ayrim so`zlarni o`qituvchi filmni namoyish qilish oldidan yoki keyin doskaga, yoxud daftarga yozdirish yo`li bilan o`quvchilarning aktiv lug`at fondini boyitishga intiladi. O`qituvchi tegishli tuzatishlar kiritgan va ko`rsatmalar berib turgan xolda o`quvchilarni boshqasa ma`noli yangi so`zlarni bir necha marta takrorlashga majbur qiladi. Shunda o`quvchilar bunday so`zlarni yaxshi eslab qoladilar.

Maktabda o`qitiladigan atrofimizdagi olam darsining muvaffaqiyati o`qituvchining materialni ko`rgazmali va obrazli bayon qilishga, o`qitishning tasviriy va ovoqli texnikaviy vositalaridan foydalanib, jonli obrazlar yarata olishiga bog`liq. O`qituvchi haqiqiy manzarani aniq tasvirlab beruvchi ko`rgazmali vositalardan foydalanishni obrazli nutqi bilan uyg`unlashtira olsa, o`quv tarbiya faoliyatida eng yaxshi samaraga erishadi.

Vizuallashtirish vositalari haqidagi ushbu qisqacha ma`lumotlarning o`ziyoq ularni ekran vositalari, ovoqli vositalar va ovoqli ekran vositalari kabi xillarga ajratishimizga imkon beradi. Ovozsiz kinofilmlar, diafilmlar va diapozitivlar ekran vositalaridir. Ovozni magnet plyonkasiga yozib olish va qayta eshittirish, gramplastinkalar, radio eshittirishlar ovoqli vositalarga kiradi. Ovozli kinofilmlar, ovoqli diapozitiv va diafilmlar, o`quv tele eshittirishlari ovoqli ekran vositalari

hisoblanadi. Bu vositalar boshqachasiga audiovizual vositalar (ovozli ko`chish vositalari) deb ataladi.

O`qitishning fotografik vositalarini qisman maktab o`qituvchisining o`zi tayyorlay olishi mumkinligini tajriba ko`rsatdi. Buning uchun o`qituvchi darsda o`qitishning hozirgi texnikaviy vositalaridan foydalanishi lozimligini his qilishi, unda uncha qiyin va ko`p bo`lmagan nazariy bilimlar va amaliy ko`nikmalar o`zlashtirib olish istagi bo`lishi lozim. Shuning uchun o`qitishning texnikaviy vositalarini o`zlashtirib olishni fotografiyaga oid elementar ma`lumotlardan boshlagan ma`qul, unki ko`pchilik ko`rgazmali ekran vositalari fotografiyaga asoslanib yaratilgan.

Vizuallashtirishning mavzuli prinsiplari:

1. Shakl va ranglarning qo`shniligi, o`xshashligi, shuningdek, ramkalar umumiylikini ta`sir etadi;
2. Harakatlar, jarayonlar va tendensiyalar har doim grafik tarzda ifodalanishi kerak;
3. Rang ko`rsatuvchi. signalli va bezovchi vazifaga ega bo`ladi;
4. Shakllar va joylashish yuqoridan pastga tuzilishini (ierarxiya) yoki rivojlanishni ko`rsatadi;
5. Mavzudan chetga chiqish va uning kamdan-kam shakllari diqqatni jalb qilishga (shu bilan birga chalg`itishga) chaqiradi;
6. Aniq vizual **asoylashits** zo`r g`ayrat bilan astoydil ishlashga chaqiradi;
7. Simvollar kompleks topshiriqdagidek bo`lishi mumkin.

1.2 Maktab geografik atlaslari va devoriy kartalar

Geografiya fanini o`qitishda kartalar, atlaslar, globuslar, relyefli kartalar, blokdiagrammalar, sxema va profillardan keng foydalaniladi.

Oldingi boblarda geografik kartalar, globuslar va atlaslar to`g`risida ma`lumot berilganligi sababli bu o`rinda faqat relyefli kartalar, blokdiagramma va profillar haqida tushuncha beramiz.

Relyefli kartalar so`nggi vaqtlarda kengroq ishlatilmoqda. Chunki unda uch o`lchamda – uzunlik, kenglik va balandlik bo`yicha tasvirlanadi.

Relyefli kartalar hajmli kartalar bo`lib, maxsus vertikal va gorizontol masshtabda ishlanadi, lekin vertikal masshtab hamma joyda bir xilda bo`lmasligi mumkin. Masalan, tasvirlanayotgan hududning relyefida past va balandliklar farqi katta bo`lsa (O`rta Osiyo, Kavkaz, Oltoy, Zabaykale va boshqalar) 2 xil vertikal masshtab ishlatilishi mumkin: 2000 metrgacha bir xil masshtab, undan baland joylar uchun esa boshqa masshtab ishlatiladi, 2 marta kichraytiriladi. Hozirgi vaqtda yarim sharlarni, Rossiya, Kavkaz, O`rta Osiyo, Qrim, Karpat, Ural, Oltoy, Issiqko`l va boshqa hududlarning relyefli kartalari nashr qilinib, o`quv va ilmiy ishlarda foydalanilmoqda.

Blokdiagrammalar yer yuzasining kichik bir qismining tekis perespektiv tasviridir. Unda yer yuzasini ustki qismigina emas, balki ichki tuzilishi ham tasvirlanadi. Blokdiagrammalar vulkanlar, uzilma, surilma va yerning geologik tuzilishi mavzularini o`tishda yaxshi ko`rgazmali qurol bo`la oladi.

Profillar yordamida yer yuzasining bo`ylama va ko`ndalang kesimi beriladi. Profil 2 xil masshtabda – gorizontol va vertikal masshtablarda tuziladi. Gorizontol masshtab kartaning masshtabi bo`lsa, vertikal masshtab unga nisbatan 10, 100, 200, 500 marta yirik bo`ladi. Profilarni bevosita joyning o`zida ham, kartada ham chizish mumkin.

Kartada uning mazmuniga qarab har xil geologik, geomorfologik profillar, tuproq profillari tuziladi. Dalada esa daryoning o`zanini ko`ndalang va bo`ylama profili va geologik kesimining profili tuziladi.

Geografiyani o`qitishda boshqa har xil qo`shimcha ko`rgazmali qurollar masalan, elektrlashtirilgan devoriy kartalar, aerokosmik suratlar, topografik kartalarning modeli, shartli belgilarning shakllari ham ishlatiladi.

Geografiya fanini o`rganishni geografik karta va atlasiz tasavvur qilib bo`lmaganligi uchun geografik kartadan foydalanish xususiyatlariga to`xtalib o`tish joiz.

Geografiya o`qituvchisi o`quvchilarga kartani o`qish va tushunishning o`ziga xos xususiyatlarini aytib berishi kerak. «Kartada nima tasvirlangan va qaysi joy tasvirlangan» degan eskirib qolgan tushuncha o`rniga hozir kartada tasvirlangan voqea va hodisalarning miqdor va sifat ko`rsatkichlarining vaqt o`tishi bilan o`zgarishi, ular orasidagi aloqa va o`zaro bog`liqlikni tushuntirish zarur. Masalan, O`zbekistondagi sug`orish va melioratsiya mavzusi o`tilayotganda kartadan Quyi Amudaryo vohasida qurilgan Arqalik kollektori orqali oqava va sizot suvlarining Sariqamish ko`liga oqizilayotganini ko`rsatayotganda, undan kelib chiqadigan vaziyatni kartaga qarab tushintirishi lozim. Sizot suvlarining oqizib yuborilishi tuproqdagi sho`rlanishni kamaytirib, tuproqning kimyoviy tarkibini yaxshilaydi, natijada ekinlarning hosildorligi oshadi, bu esa iqtisodiyotni ko`tarishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, qurib qolgan Sariqamish botig`i o`rnida ko`l hosil bo`lib, tabiiy geografik jarayon boshlanadi, demak, bu bilan o`sha hududdagi tabiatda katta o`zgarishlar vujudga keladi. Natijada u yerda suv bilan bog`liq bo`lgan o`simlik va hayvonot dunyosi vujudga keladi. Shularning hammasini o`qituvchi o`quvchilarga kartaga qarab tushuntirib berishi kerak.

Geografik kartalardan voqea-hodisalarning sifat ko`rsatkichlari bilan bir qatorda miqdor ko`rsatkichlar haqida tasavvur olish mumkin. Masalan, topografik kartalarda quduq tasvirlangan bo`lsa, quduq suvning sifati (sho`rligi yoki chuchukligi), miqdori, chuqurligi beriladi. Siyosiy-ma`muriy kartada punsonning katta va kichikligiga qarab aholisining soni, nomi yozilgan shrift yordamida esa shahar, shahar tipidagi posyolka yoki qishloq ekanligi aniqlanadi.

O`quvchilarga kartadan foydalanish yo`llarini o`rgatayotganda o`qituvchi shaharlar odatda daryo bo`ylarida joylashganligini, ichish uchun, sanoat va ko`kalamzorlashtirish va h.k. uchun suv zarurligini o`quvchilarga tushuntirib berishi kerak. Ana shularni tushunib borish bilan bir qatorda yuqori sinf o`quvchilari sanoat va qishloq xo`jalik tarmoqlarini joylashtirishda tabiiy sharoitning rolini ham o`rganib boradilar.

Kartaning yana asosiy xususiyatlaridan biri shundaki ko`rmagan, ko`rish mumkin bo`lmagan hududlar to`g`risida ham yetarli darajada ma`lumot beradi,

masalan, kartadan foydalanib, Avstraliya materigi to`g`risida ma`lumot olish mumkin.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, karta bilan ishlash voqea-hodisalar to`g`risida aniq tasavvur hosil qilish, ularni yodda saqlash, tahlil qilish, taqqoslash, mantiqiy fikrlash o`zaro bog`liqlikni o`rganish va shu asosda xulosa chiqarish yo`llarini o`rgatadi. Karta maktabda o`quv jarayonida o`quvchilar faolligini kuchaytirishda, fanni mustaqil o`rganish va unga qiziqishni oshirishda, geografiyani hayot bilan bog`lashda, o`quvchilarni vatanparvarlik ruhda tarbiyalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Hamma geografik o`quv kartalar masshtabi, maqsadi, mazmuni, ishlatilishi va boshqa xususiyatlariga qarab turlarga bo`linadi.

Geografiyada dastlab umumgeografik kartalardan foydalaniladi, kartaga bo`lgan ko`nikma, tushuncha va bilimlar oshib borgandan so`ng mavzuli kartalardan foydalanish imkoniyati tug`iladi. Natijada ma`lum hududlar (materik, davlat va h.k. lar) ning geografik o`rnigina emas, balki ularda sodir bo`layotgan tabiiy va iqtisodiy geografik o`zgarishlarni, ularning xususiyatlarini ham bilib olish imkoniyati tug`iladi. Umumgeografik kartalar ham har xil masshtabda bo`ladi. Maktabda dastlab yirik masshtabli topografik kartalardan foydalaniladi.

So`nggi vaqtda kosmosdan olingan ma`lumotlardan foydalanishga katta e`tibor berilmoqda. Kosmosdan olingan ma`lumotlar televideniya, radio va ommaviy axborot vositalarida ko`plab qo`llanilmoqda, shu asosida meteorologik va sinoptik kartalar tuzilmoqda. obi-havoni oldindan aytib berishda kosmosdan olingan ma`lumotlarning ahamiyati ayniqsa oshib bormoqda. Xususan, geologiya, tuproqshunoslik, geobotanika, okeanologiya, landshaftshunoslik, o`rmon xo`jaligi va qishloq xo`jaligida keng foydalanilmoqda. Geografiya darsliklarida, geografik atlaslarda Yerning «Zond-5» planetalararo kosmik kemasida 70000 km dan olingan surati berilgan, undan geografiyani o`qitishda foydalanish mumkin. Birinchidan, kosmosdan olingan suratda Yerning haqiqiy shakli (shar shaklida ekanligi) ko`rinib turadi. Bunda Yerning shaklini bir tomoni (quyoshga qarab turgan tomoni) ko`rinadi, ikkinchi tomoni (quyosh tushmaydigan tomoni)

ko`rinmaydi, ana shunga qarab o`quvchilar kun va tun qanday paydo bo`lishini aniq tasavvur qila oladilar. Ba`zi ilg`or maktablarda kosmik suratlardan foydalanish bo`yicha fakultativ darslar olib borilmoqda. Bu esa geografiyani yanada mukammalroq o`rganish imkonini bermoqda.

Maktab o`quv kartalari boshlang`ich sinf, o`rta va yuqori sinf kartalariga bo`linib, mazmuni va jihozlanishi bo`yicha ham farq qiladi.

Geografiya o`qitish jarayonida maxsus yozuvsiz kartalardan, panoramali, elektrlashtirilgan, relyefli kartalardan ham foydalaniladi.

O`quv kartalari yirik masshtabli, o`rta masshtabli va mayda masshtabli kartalarga bo`linadi. Yirik masshtabli kartalarga topografik kartalar kiradi. O`rta masshtabli kartalarga viloyat, o`lka va respublikalarning kartalari ham kirishi mumkin (masalan, O`zbekistonning 1:1 000 000 masshtabli tabiiy geografik kartasi, Toshkent, Samarqand va boshqa viloyatlarning kartalari). Mayda masshtabli kartalar ko`proq ishlatilib, ularga yarim sharlar, materiklar, mamlakatlar kartalari kiradi.

Ishlatilishi bo`yicha devoriy kartalar va stol ustiga yoyib foydalanadigan atlas kartalari bo`ladi. Devoriy kartalar sinfdagi hamma o`quvchilar uchun mo`ljallangan. Bunday kartalarda daryolar yo`g`onroq chizilgan, shaharlarning nomlari kattaroq ko`rsatilgan, geografik obyektlarning nomlari kattaroq yozilgan bo`ladi.

Stol ustiga yoyib ishlatiladigan kartalar o`quvchilarning mustaqil yakka holda dars qilishi uchun mo`ljallangan bo`lib, atlaslarda, kitoblarda (rangli va oq-qora rangda) beriladi.

Kitoblardagi oq-qora rangdagi kartalar mazmunining soddaligi, sxematik ravishda tuzilganligi, kartografik to`rlarning ba`zilarida yo`qligi bilan ajralib turadi.

O`quv geografik kartalar har bir sinfga mo`ljallangan dasturga muvofiq tuziladi. Bunday kartalarda o`quvchining yoshi, hattoki o`quvchi o`qiydigan badiiy kitoblarda uchraydigan geografik obyektlar ham e`tiborga olinadi. Lekin kartada faqat dastur va darsliklardagi materiallarga tasvirlansa boshqa juda ko`p joylar

qolib ketadi va geografik komponentlarning o`zaro bog`liqligini bilib bo`lmaydi. Shuning uchun kartada tasvirlangan geografik obyektlar mukammal, mazmunli oson o`qiladigan bo`lishi uchun zarur bo`lgan boshqa obyektlar ham ko`rsatilishi kerak.

Kartalardan foydalanish va o`qishni osonlashtirish uchun kartada geografik obyektlarning qulay shartli belgilarigina ishlatiladi. Masalan, ko`mir konining shartli belgisi rangining qoraligi va shaklining aniqligi bilan ajralib turadi. Kartada, birinchi navbatda dastur va darslikdagi obyektlar kattaroq va ko`zga tashlanadigan qilib tasvirlanadi. Masalan, elektrostantsiyalar kartasida issiqlik stantsiyalari qizil, suv elektrostantsiyalari to`q ko`k rangda, atom elektrostantsiyalari qora rangda beriladi.

Kartografik tasvirlar ikki xil shaklda berilishi mumkin:

1. Kartada tasvirlanadigan obyektlar shunday shartli belgi yoki rang bilan tasvirlanadiki, uni ko`rish bilanoq shu obyekt to`g`risida tasavvur hosil qilish va uni ko`z oldiga keltirish mumkin. Bunday shartli belgilar realistik tasvirlar deb yuritiladi. Dengizlar, ko`llar, materiklar, orollar, o`rmonlar, botqoqliklar, daryolar, kanallar, avtomobil yo`llari va h.k. larning shartli belgilariga qarab, shu obyektlar to`g`risida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

2. Geografik obyektlar shartli ravishda qabul qilingan shartli tasvir yordamida tasvirlanadi.

Shartli belgilar rangi ba`zan kartadagi tasvirlangan mazmunga to`g`ri kelmaydi. Masalan, geometrik belgilar, harflar, strelkalar, chiziqlar, sanoat va qishloq xo`jalik tarmoqlarini ko`rsatuvchi ranglar ana shundaydir. Realistik tasvirlarni o`qish va tushunish oson. Shartli belgilarni o`qish va tushunish birmuncha qiyin. Lekin kartalarda ikkalasi birgalikda ham alohida ham tasvirlanishi mumkin.

Hamma maktab o`quv kartalarining tasvirlash xususiyati 2 turga bo`linadi:

1. Realistik usulda tasvirlangan kartalar – ko`proq umumgeografik va tabiiy kartalardir.

2. Shartli tasvirlar bilan tuzilgan kartalarga deyarli hamma maktab o`quv mavzuli kartalari, geologik, landshaft, tarix kartalari kiradi.

O`quv kartalarining mayda masshtabligi, ya`ni mayda masshtabli kartalarda Yer ellipsoididan tekislikka o`tishda vujudga keladigan xatoliklarning mavjudligi bunday kartalarning matematik asosining asosiy xususiyatlaridandir. Shuning uchun ham mayda masshtabli kartalarda o`lchangan masofa, maydon, shakllar yer yuzasidagi holatidan ancha farq qiladi. O`quvchilarga kartadan foydalanishni osonlashtirish maqsadida iloji boricha proektsiyalarning va masshtablarning bir-biriga uyg`un bo`lishiga harakat qilinadi.

Kartalarda berilgan kartografik to`rning ahamiyati katta bo`lib, kartada gorizont tomonlarini, obyektlarning o`rnini masofa va maydonlarni (sferik trapetsiya yordamida) aniqlashda juda zarur element hisoblanadi. Kartografik to`r yordamida mahalliy vaqt va mintaqa vaqtini, kengliklarga bog`liq bo`lgan iqlim xususiyatlarini aniqlash mumkin. Nihoyat, kartografik to`r yordamida Yer sharining sharsimonligi ham ko`rsatilishi mumkin.

Boshlang`ich sinflarda o`qituvchi karta bilan o`quvchilarni tanishtirar ekan, obyektning geografik o`rnini kartaning ramkasiga qarab emas, balki meridian va parallellarga qarab aniqlash kerakligini aytadi. O`qituvchi dastlab meridianlar, parallellar, ekvator, qutblar, tropik va qutbiy chiziqlarining nima ekanligini va ularning qayerlardan o`tishini tushuntirishi kerak.

Dastlab o`quvchi kartografik to`r yordamida globusda, kartada gorizont tomonlarini va nuqtalarning koordinatalarini aniqlay bilishi lozim, so`ng o`quvchi kartadagi gradus to`ri bilan globusdagi gradus to`rini taqqoslab, masofalarni kartada ham, globusda ham o`lchab, xatolikni aniqlay bilsin. Yuqori sinfda o`quvchilar bosh masshtab va xususiy masshtab, teng burchakli, teng oraliqli va ixtiyoriy proektsiyalar to`g`risida dastlabki tushunchaga ega bo`ladilar. Shu asosida o`quvchilarga bosh meridian va 180^0 li meridianlar yo`g`on chiziqlar bilan, tropik va qutbiy doiralar uzun chiziqlar bilan chizilganligini aytib o`tiladi. Kartaning nomi uning shimoliy ramkasi tepasiga yirik shriftlar bilan yoziladi. Devoriy kartalarda legenda karta ramkasining bo`sh joyida beriladi.

O`quv kartalarida o`rtanchi meridian doimo to`g`ri chiziq bilan tasvirlanib, shimol va janub tomonlarni ko`rsatib turadi. Mayda masshtabli kartalarda shimol va janub faqat meridianlar yo`nalishi bo`yicha, g`arb va sharq faqat parallellar yo`nalishi bo`yicha aniqlanishini doimo yodda tutish kerak.

Maktab geografiyasini o`rganishda har xil maxsus kartalar, yozuvsiz (soqov) va yarim soqov karta va sxemalar qo`llaniladi.

Yozuvsiz kartalarda kartografik to`r berilib, asosiy geografik obyektlar ko`k rangda tasvirlanadi. Yozuvsiz kartalar o`quvchilarning amaliy mashg`ulot o`tkazishlari va mustaqil ishlashlari uchun zarur vositadir. Yozuvsiz kartalar geografiyadan olgan bilimlarini o`quvchilar xotirasida mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. O`rta maktab geografiya dasturlarida hamma sinflar uchun yozuvsiz kartalarda geografik obyektlarning o`rni va chegaralari aniqlanib, chiziladi, so`ng nomlari yoziladi. Bu ishlar devoriy kartalardan yoki atlaslardagi kartalardan foydalangan holda dastlab o`qituvchi yordamida bajariladi. 5-6-sinflarda esa mavzuli kartaga tushiriladigan geografik obyektlar bir oz murakkablashadi. Dastlab o`quvchilarga mavzuli kartada materiklar, okeanlar, yirik dengizlar va ko`llarning nomlarini yozish yo`li o`rgatilsa, so`ng regionlar va davlatlar, ulardagi kichikroq geografik hududlarning aholisi, iqlim ko`rsatkichlari, hayvonot dunyosining joylanishi ko`rsatiladi.

Har qanday yozuvsiz kartalar bilan ishlaganda, tasvirlanayotgan geografik obyektlarni o`qish uchun kartaning chegarasidan tashqarisidagi bo`sh joyga legenda berilishi shart, legendsiz kartani o`qib bo`lmaydi.

O`quvchi yozuvsiz kartalardan foydalanayotganda tasvirlanayotgan geografik obyektlarni tushunib chizishi zarur. Shundagina bunday ma`lumotlar o`quvchilar xotirasida saqlanib qoladi. O`quvchilar yozuvsiz karta bilan ishlash natijasida fikrlash bilan birga ijodiy ish ham bajaradilar.

Maktabda ishlatiladigan devoriy o`quv kartalarining turlari va o`quv atlaslari. Maktablarda geografiya fanini o`qitishda sinflar uchun alohida kartalar to`plami, o`quv atlaslari nashr qilingan. Har bir sinf to`plamiga kirgan kartalarning proektsiyasi, masshtabi va geografik asosi bir xil, ular faqat mazmuni bilan ajralib

turadi. Natijada kartalarni bir-biriga taqqoslab, foydalanish ham osonlashadi. Odatda bunday kartalar devoriy kartalardir. Materiklar geografiyasida har bir materik uchun (Antraktidadan tashqari) tabiiy karta, iqlim kartasi, tabiiy zonalar, aholi kartalari berilgan bo`lib, har bir materikning tabiiy geografiyasi shu sinf o`quvchisi uchun yetarli ravishda aks ettirilgan.

7-sinfda O`rta Osiyo va O`zbekiston tabiiy geografiyasida 1:10 000, 1:25 000, 1:50 000 masshtablarda topografik kartalar to`plami berilgan. Bu topografik kartalar geografiya dasturidagi ba`zi mavzularni o`tishda asosiy manba bo`lib xizmat qiladi. Masalan, shartli belgilar, masshtablar, topografik kartalarning nomenklaturasi, oriyentirlash burchaklari (azimut, rumb, direksion burchak va boshqalar) nuqtalarning geografik va to`g`ri burchakli koordinatalarini, topografik kartada nisbiy va mutloq balandliklarni aniqlashda, relyefni tasvirlash usullarini tushuntirishda, bo`ylama profil chizishda asosiy material bo`lib hisoblanadi. O`rta Osiyo va O`zbekiston tabiiy geografiyasini o`rganishda kartalar to`plami har xil tabiiy geografik va mavzuli kartalarni o`z ichiga oladi. O`zbekistonni 1:1 000 000 masshtabdagi tabiiy kartasi, geologik, tektonik, umumiqlim, o`simliklar, tuproqlar, hayvonot dunyosi, qazilma boyliklar, landshaft (tabiiy geografik rayonlari) kartalari shular jumlasidandir. Shu bilan birga tabiatni muhofaza qilish va ekologik kartalarini tuzish kerak, chunki, darslikda mavzuga tegishli materiallar bor-u, kartalari esa chop etilmagan.

O`zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi uchun zarur bo`lgan devoriy kartalar tuzilmoqda. Ba`zilari chop etilmoqda. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi uchun iqtisodiy-geografik kartalar, sistemasi zarur, hamma o`quv iqtisodiy kartalar absolyut ko`rsatkichda berilgan bo`lishi kerak.

Hozirgi vaqtda o`quvchilarning geografiya fani bo`yicha mustaqil ishlashlarida, amaliy mashg`ulotlar bajarishlarida geografik o`quv atlaslarning ahamiyati oshib bormoqda. Maktab o`quv atlaslari har bir sinf uchun nashr qilinishi kerak. Bunday atlaslar mazmuni bo`yicha o`quv kompleks atlasiga kiradi. Chunki bunday atlaslarda umumgeografik kartalar bilan bir qatorda bir qancha mavzuli kartalar ham mavjud.

O`quv maktab atlalari 3 qismdan tashkil topgan.

1. Kirish qismi, ya`ni 1-qism - unda atlasdagi kartalarni o`qish uchun kerak bo`lgan shartli belgilar, jadvallar, maxsus matnlar, mundarija va boshqalar beriladi, 2-qismida bevosita kerak bo`lgan kartalar beriladi, 3-bo`limda ma`lumotnomalar, sxema va diagrammalar beriladi. Sobiq Ittifoqi davrida nashr qilingan o`quv atlalarning kirish qismida plan nima, u qanday vujudga keladi? degan tushunchalar berilib, sinf planidan boshlab kartalarni o`qish yo`llarigacha bayon etilganki, geografiya o`qituvchisi dars jarayonida bu ma`lumotlarni qaytarib o`quvchilarga tushuntirib borishi kerak.

O`quvchilarga atlasdagi kartalarda tasvirlangan hududlarning yer yuzasidagi tabiiy landshaftini ko`rsatish maqsadida, ba`zi bir landshaft turlarining suratlari ham keltiriladi. Masalan, 4-sinfning tabiat zonalar kartasidagi Arktika zonasining tasviri alohida surati berilib, muzlar va oq ayiq tasvirlangan. O`quvchi karta yordamida o`sha hududning landshaftini ko`z oldiga keltiradi.

Respublikamiz kartograflari geograflar bilan birgalikda o`quvchilar uchun 7-8-9-sinflarga mo`ljallangan «O`zbekistonni o`quv atlasini» va «Xorijiy mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy atlalari» tuzib, nashr qilindi. Endilikda o`rta maktab geografiyasi bo`yicha 4,5,6-sinflar uchun geografik o`quv atlalari tuzib nashr qilish arafasida.

O`quv o`lkashunoslik atlalari va o`quv topografik kartalar. Sobiq Ittifoq davrida har bir respublikaning va Rossiya Federatsiyasining ko`pchilik viloyatlarining o`quv-o`lkashunoslik atlalari nashr qilingan edi. Shunday atlas dastlab 1961 yilda Tambov viloyatining atlasini nashr qilish bilan boshlangan edi. Shu tipdagi atlaslar 50 dan ortig`i nashr qilingan, bu atlaslar o`quvchilarning o`z o`lkasini o`rganishlarida ahamiyati katta. Lekin bunday atlaslar faqat Rossiya federatsiyasi oblastlari uchun chop etilib, boshqa respublikalarning oblastlari uchun nashr qilinmagan. Lekin mustaqillikdan so`ng Ukraina Respublikasi viloyatlarini ham shunday atlalari chop etilmoqda.

O`sha davrda 1981 yilda O`zbekistonning ham o`quv-o`lkashunoslik atlasini chop etildi. Atlas hajmi va jihozlanishi bo`yicha ancha yuqori saviyada tuzilgan.

Hozirgi vaqtda respublikamiz maktablari uchun o`quv atlaslari chop etilib, davr talabi darajasida emas. Respublikamiz viloyatlarini ham o`quv-o`lkashunoslik atlaslarini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Chunki respublikamiz viloyatlarining tabiati rang-barang, iqtisodiyoti turlicha bo`lib har bir viloyat yoki region (iqtisodiy geografik rayon) lar uchun shunday atlas yaratish zaruriyati tug`ilmoqda. Masalan, Farg`ona vodiysi, Toshkent vohasi hamda Janubiy O`zbekiston atlaslari va h.z.lar. Bunday o`quv-o`lkashunoslik atlaslarini yaratuvchi kadrlar va nashr qiluvchi kartografik fabrikalar mavjud.

1.3. Zamonaviy kartografik qo`llanmalar: interaktiv kartalar

Geografiya fani muhim xususiyati shundaki, unda juda ko`p axborotlar jamlangan. Zamonaviy geografiya darslarini tashkil etish o`qituvchilardan juda ko`p axborotlar bilan ishlashni, xususan, ensiklopediyadan to OAVdagi geoaxborotlar bilan ishlashni talab etadi. Darslarda AKTdan, geografik dastur va elektron interaktiv kartalardan ta`lim vositasi sifatida keng foydalanish, zarur axborotlarni izlashda vaqtni tejab, tayyorgarlik bosqichida foydalaniladigan manbalar hajmini umumlashtiradi.

Geografiya o`qituvchisining ilmiy-uslubiy tayyorgarligiga quyidagi talablar qo`yiladi:

- geografiya darslari, ekskursiyalar, darsdan va sinfdan tashqari mashg`ulotlarda o`qitishning samarali vositalari, uslublari hamda shakllaridan foydalanish;

- geografiya ta`limi mazmuni va pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish yo`llari, geografiya o`qitishda o`quvchilarni tarbiyalashning mazmuni, vositalari, metodlarini bilish va amalga oshirish;

- o`quvchilarning o`quv motivlarini faollashtirish ko`nikmalari;


Shaxsiy kutubxonamizda turli geografik dasturlar, entsiklopediyalar, ma`lumotnomalar hamda 10 ga yaqin elektron interaktiv kartalar mavjud bo`lib, ulardan zamonaviy ta`lim vositasi sifatidan keng foydalanamiz. Misol tariqasida, mazkur nashrda amaliyotda qo`llab kelayotgan elektron tabiiy kartadan

foydalanish bo'yicha yo'riqlarimiz va tajribalarimiz bilan o'rtoqlashmoqchimiz. Internet tarmog'i ta'limiy resurslaridan unumli foydalanish maqsadidagi intilishlarimiz natijasida juda ko'p geografik interaktiv kartalarni olganmiz. Bulardan biri Rossiya Federatsiyasi "DROFA" mediakompaniyasining "Ugol padeniya solnechnyx luchey" nomli manbasidir (1-rasm).




1-rasm. Elektron kartaning asosiy ko`rinishi.

Mazkur manba bosma tabiiy kartalarning alternativ varianti sifatida katta hajmli ekranda proyeksiya yo'li bilan namoyish etiladi. Uning 1-bo'limida Yer sharining yil bo'yi yoritilishi burchaklarini ko'rsatuvchi ikki o'lchamli dinamik rolik yaratilgan bo'lib, o'rgatuvchi va o'rganuvchiga aniq astronomik-geografik tasavvurni taqdim etadi (2-rasm).




2-rasm. Yer sharining yil bo'yi yoritilishi.

Elektron kartada shartli belgilar qismi alohida illyustratsion tarzda berilgan. Kartada bir necha qatlamlar bilan ishlash imkoniyati mavjud (3- rasm).



3-рasm. Karta shartli belgilari va qatlamlari.

Kartada geografik obyektlar bo`yicha qo`shimcha illyustrativ ma`lumotlar (fotolavhalar, matniy va dinamik ma`lumotlar) berilganki, bu mashg`ulotda beriladigan geografik axborotlarni to`ldiradi. Misol tariqasida, balandlik va chuqurliklar shkalasi, aniq geografik obektlar (Yer shari quruqlik va okean qismi bo`yicha 30 dan ortiq) Himolay cho`qqisi, Antarktida sohillari, Karib dengizi kabi joylarning ma`lumotlari ko`rinadi (4- rasm).




4-рasm. Kartaning qo`shimcha illyustratsiyalari.

Manbaning interaktivligi uning shu muhitda foydalanish davomida o`qituvchi va o`rganuvchilar tomonidan turli yozuvlar yoza olishi, chiziqlar va belgilar qo`ya olishida namoyon bo`ladi (5-rasm). Masalan, karta bilan ishlaganda geografik obyektlarga tegishli miqdoriy va boshqa ko`rsatkichlar (uning

o`lchamlari, sanalar, ismlar hamda geografik terminlar) yozuv va geometrik shakllarda turli ranglar ifodasida ta`sirchan holatda belgilar qo`yib borish, mazkur amallarni saqlab qo`yish imkoniyatlari jamlangan. Undan tabiiy geografiya fanlari mashg`ulotlarida keng va samarali foydalanish mumkin. Amaliyotimizda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, topografiya va kartografiya hamda maxsus geografiya fanlari bo`yicha jamlangan elektron kartalardan foydalanib kelmoqdamiz. Ular haqida keyingi nashrlarimizda o`rtoqlashamiz.

Geografiya darslarida AKTlaridan foydalanish o`quvchilarning geografik axborotlarni yig`ish, qayta ishlash, taxlil qilish, baholash, anglash hamda mazkur axborotlardan to`g`ri foydalanish, turli amaliy maqsadlarga erishish uchun o`z bilimlarini qo`llash va boshqarish kabi savodxonlik ko`rsatkichlari, ya`ni geografik madaniyati komponentlari shakllanadi.




5-rasm. Kartaning interaktiv qismi.

Ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar tashkil etishda va talabalar bilimlarini nazorat qilishda zamonaviy kompyuter texnologiyalari va ilg`or pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanmoqdamiz. Bunda bir qator interaktiv kompyuter dasturlari va elektron interaktiv geografik kartalardan foydalanilmoqda. Biz quyida mashg`ulotlarda keng foydalanib kelinayotgan "Seterra" interaktiv

geografik dasturidan foydalanish bo'yicha qisqacha uslubiy ko'rsatma berib, natijalarimizni o'rtoqlashmoqchimiz.

“Seterra” interaktiv geografik dasturi talabalarning geografik-kartografik bilimlarini takomillashtirib, Yerning geografik surati haqida aniq tasavvur hosil qilishi bilan birga, kartografik bilimlarni o'lchash va nazorat qilish imkoniyatlarini beradi. Bu dasturni internet ta'limiy resurslari bazasidan yuklab olish va shaxsiy kompyuterlarga o'rnatish mumkin.


“Seterra” dasturi kompyuterga yuklab olingach, uni faollashtiramiz. Buning uchun dastlab menyudan “Seterra” dasturi yorlig'i ustiga sichqonchani chap tugmasini 2 marta bosamiz, natijada quyidagi oyna ochiladi: (6-rasm.)



6-rasm. “Seterra” dasturi bosh menyusi

Dastur tarkibida 7 bo'limdan iborat (butun Dunyo va alohida qit'alar) murojaat sohalari ajratilgan bo'lib, ularning har birida “Mamlakatlar”, “Poytaxtlar”, “Shaharlar”, “Test sinovi”, “Davlat bayroqlari” bo'yicha trenajyor hamda daryo regional qismlari bo'yicha kartografik topshiriqlar berilgan. Har bir topshiriq bo'yicha bajarilayotgan natijalar hisoblanib, baholanib boriladi.

Endi dasturdagi sohalari bilan birma-bir tanishib chiqamiz. Dastlab “Mamlakatlar” sahifasi ustiga borib sichqonchani ikki marta bosgandan keyin quyidagi holat sodir bo'ladi: (7-rasm.)




7-rasm. “Mamlakatlar” sahifasi

Avtomatik ravishda vaqtanaladi. Biz tanlagan hudud - “Yevropa”. Ko`rib turganimizdek, bizga xaritadan Ruminiyani topish vazifasi yuklangan.

“Poytaxtlar” bandidagi buyruqni tanlaymiz.


Sahifani ustiga borib sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosamiz va bunday jarayonga guvoh bo`lamiz: (8-rasm.)



8-rasm. “Poytaxtlar” sahifasi

Ekranda geografik kontur namoyon bo`ladi. Bizga bu bandda ketma-ket shaharlar joylashgan o`rnini topish vazifasi qo`yiladi. Agar biz bir urinishda to`g`ri javobni tanlay olsak, keyingi savolga o`tilgan holatga ko`zimiz tushadi. Agar

to`g`ri javobni topa olmasak, 2-marta urinishdan so`ng to`g`ri javob turgan nuqta o`zi qizil rangli tus olib, bizni ogohlantiradi.




9-rasm. “Seterra” dasturi “Poytaxtlar” viktorinasi

Navbatdagi band “Poytaxtlar” viktorinasi. Bu sahifa yozuvi ustiga borib sichqonchani chap tugmasini 2 marta bosganimizda yuqoridagi holat sodir bo`ladi (9-rasm).

Bu holatda topshiriq sifatida poytaxt nomi berilgan, u qaysi davlat poytaxti ekanligini topish kerak.

“Daryolar” bandida daryo konturi berilgan, ketma-ket mintaqa daryolari joylashuvini aniqlab topish vazifasi yuklangan (10-rasm).



10-rasm. “Seterra” dasturi “Daryolar” bandi

Hozirgi paytda, ilm-fan va taʼlimiy texnologiyalarning eng soʻnggi yutuqlari asosida yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan-texnika, texnologiyalar rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimning amal qilishga erishishdan iboratdir.

“Seterra” dasturi mukammal ishlangan boʻlib, bu dastur barcha mashgʻulotlarni ilgʻor pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida tashkil etish imkonini berib, oʻquvchi-talabalarning mustaqil va guruhviy mashq bajarishlari, mustaqil ijodiy fikrlashi, mavzularni oʻrganishda mavjud geografik bosma va elektron manbalardan toʻgʻri foydalanishga, erkin mulohaza yuritishga hamda mustaqil ilmiy tadqiqotlarni bajarishda imkoniyatlar yaratadi.

II BOB. KARTOGRAFIK QO`LLANMALAR TAYYORLASH VA ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI

2.1. Kartografik qo`llanmalar tayyorlashga majmualiy yondashuv

Ta`limni rivojlantirishning hozirgi bosqichida o`qitishni tashkil etishning vositalarini, shaklini va uslubiyotini yangilash zaruriyati paydo bo`ldi. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy taraqqiyot har doim jamiyatning barcha bo`g`inlari uyg`unligida ro`y berib, jamiyatning hech bir jabhasi undan ayri holda qolishi mumkin emas. Shunga ko`ra ijtimoiy taraqqiyot nafaqat jamiyat hayotida bir bosqichdan boshqasiga o`tishni, ayni paytda, ana bosqichlardagi tafakkurning bilim va axborot tarzida o`zaro almashinuvini ham ifoda etadi. Bugungi biz yashayotgan davr mazmunan mutlaqo yangi davr, yangi bosqichdagi jamiyatdir. Mamlakatimizning davlat mustaqilligini qo`lga kiritilishi, liberallashtirish jarayonlari nafaqat jamiyat iqtisodiy-siyosiy tizimini, balki, jamiyat g`oyaviy-mafkuraviy asosining ham tubdan yangilanishiga olib kelmoqda.

Bu o`z navbatida jamiyat qurilishining muhim vositasi hisoblangan ta`lim-tarbiya jarayonida an`anaviy uslub va yondashuvlarni takomillashtirishni, jahon tsivilizatsiyasida o`z mustahkam o`rniga ega bo`lgan Sharq gumanizmi va G`arb

individualizmi yutuqlari singdirilgan xilma-xil qarashlarni amaliy faoliyatimizda qo`llashni taqozo qiladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy hayotda bozor tamoyillarining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy munosabatlar tizimida, balki, boshqa barcha jabhalarda ham raqobatbardoshlik tushunchasini, uning obyektivligini anglash imkonini berdi. Ya`ni, bugungi kunda hayotimizda mahsulot, xizmatlar, korxonalar raqobatbardoshligi bilan bir qatorda kadrlar va ta`lim raqobatbardoshligi tushunchalari ham keng qo`llanilmoqda. Ta`limning ilg`orlik darajasi ko`p yillik istiqboldagi jamiyatning faol a`zolari qatlamlarini shakllantirishning bosh omilidir. Bu shubhasiz, ta`lim munosabatlarining uzluksiz yangilanib, rivojlanib borishini obyektiv shart sifatida belgilaydi.

Uchinchidan, ta`lim-tarbiya samaradorligi uch yoqlama xarakterga ega bo`lib, u bir tomondan ta`lim beruvchi – o`qituvchi, ikkinchi tomondan ta`lim oluvchi – o`quvchi hatti-harakati bilan, uchinchi tomondan, mavjud shart-sharoit, muhitning qulaylik darajasi bilan belgilanadi. Shunga ko`ra jamiyat hayotining bugungi liberallashuvi sharoitida ta`lim jarayonining nechog`lik samaraga ega bo`lishi o`quvchi-talabalarning qiziqish va manfaatlari hisobga olinishi bilan uzviy bog`liq.

Yuqorida ta`kidlangan vazifalar yechimida ta`lim jarayoniga yangicha ta`lim, jumladan, pedagogik va axborot texnologiyalarini tadbiiq etish, o`qitishni tashkil etishning noan`anaviy usul va shakllaridan keng va samarali foydalanish kutilgan natijaga erishish imkonini beradi.

Mamlakatimiz ta`lim jarayoniga texnologiya tushunchasi bir muncha keyinroq, ta`lim islohotlari davrida kirib kelgan bo`lib, yunoncha “texne” – mahorat, “logos” – ta`limot, tushuncha so`zlari birikmasidan tashkil topgan. Texnologiya tushunchasi tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo`llaniladigan usul va metodlar majmui; shunday usul va metodlarni ishlab chiqaruvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta`riflanadi. Ta`lim jarayonidagi texnologiya o`ziga berilgan ta`rifga mansublikni to`liq saqlab qolgan

holda, innovatsion faoliyatni va undagi “kreativlik”⁶ xususiyatini ro`yobga chiqarishga qaratiladi [5,16].

Yuqorida ta`kidlanganidek, ta`lim – bilim va axborot almashinuvining o`ziga xos shakli va ayni paytda ijtimoiy xarakterdagi tizimli vositasi bo`lib, bu jarayonda shubhasiz axborot texnologiyalari markaziy o`rinni egallaydi.

Ta`lim islohotlari tizimida axborot texnologiyalarini qo`llash vazifasi yaxlit jarayon bo`lishiga qaramay, har bir fan tarmog`ining o`ziga xos xususiyatlari o`zaro farqlanuvchi yondashuv va vazifalarni keltirib chiqaradi. Xususan, geografiya ta`limida texnologik yondashuv, birinchidan, o`qitish jarayonini o`zaro uzviy bog`liqlikdagi bosqichlar, bazalar, amallarga ajratish, bo`lishni – sintezni; ikkinchidan, geografiya ta`limidan ko`zlangan natijaga (o`quv maqsadlarga) erishish uchun bajariladigan harakatlarni ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni – uzviylikni talab etadi

Axborot texnologiyalardan foydalanish, uni biror bir sohaga tadbqiq etish o`z ichiga qator vazifalarni oladi. Axborotlashgan obyektlar sifatida sonlar, matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, rasmlar, chizma va animatsiyalar, ovozli obrazlarni keltirish mumkin. Foydalanuvchining mustaqil va ongli ravishda olib boradigan faoliyatiga axborot obyektlarini yaratish, kerakli axborot obyektlarini izlash, axborotlar yig`ish, taqlil qilish va ajratib olish, tashkillashtirish, kerakli ko`rinishda tasvirlash, ma`lumotlarni uzatish, loyihalash, modellashtirish va boshqalar kiradi.

Ta`limda axborot texnologiyalarining faol qo`llanilishi o`quvchida mustaqil izlanishni rag`batlantiradi. Chunki, mohiyatan axborot texnologiya modellari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirish davomidagina o`zlashtiriladi.

Bu jarayon o`z navbatida quyidagilarni o`z ichiga oladi:

► kompyuter, printer, modem, mikrofon va ovoz eshitish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proektor, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar bilan ishlash hamda ularning dasturiy ta`minotini yaratish;

⁶ “Kreativlik” tushunchasi individning yangi tushuncha yaratish va yangi ko`nikmalar hosil qilish qobiliyatini bildiradi.

▶ virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar, musiqalar, modellar, geografik xaritalar, ekran protsessorlari va hokozolar ustida ishlash;

▶ axborot majmui, ma`lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual muzeylar yaratish va boshq.

Bilim olishda, ma`lum turdagi axborotlarni o`zlashtirishda kompyuter tizimining yordami benihoya kattadir. Axborotlar qanday ko`rinishda ifodalanishidan qat`iy nazar uni yig`ish, saqlash, qayta ishlash va foydalanishda kompyuter texnikasining rolini quyidagilar belgilaydi:

1) O`qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish standart tizimga nisbatan o`quv jarayonini jadallashtirib, talabada ilmga qiziqishni oshiradi, ularning ijodiy faoliyatini o`stiradi, olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat qilishni yengillashtiradi, talabani o`quv jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

2) Yangi axborot texnologiyalardan ta`lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllardan foydalanish mumkin bo`ladi:

- ▶ muayyan predmetlarni o`qitishda kompyuter darslarini tashkil etishda;
- ▶ kompyuter darslarini – ko`rgazmali material sifatida qo`llashda;
- ▶ talabalarning guruhli va frontal ishlarini tashkillashtirishda;
- ▶ talabaning ilmiy izlanishlarini takomillashtirish, faollashtirishda;
- ▶ talabalarni o`qishdan bo`sh vaqtlarini to`g`ri tashkil qilish masalalarini hal etishda va hokazo.

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarini ta`lim jarayonida qo`llashning yana bir o`ziga xos tomoni – u o`quvchi shaxsini rivojlantirishga yo`naltirilgan butun bir uslubiy tizimni yaratish imkonini beradi. Ana shunday imkoniyatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

▶ yangi axborot texnologiyalari vositalari va foydalanuvchilar o`rtasida ikki yoqlama aloqaning o`rnatilishi;

▶ geografik obyektlar, jarayon, hodisalar, qonuniyatlar haqidagi ma`lumotlarning kompyuterda tasviriy namoyish qilinishi;

▶ katta miqdordagi ma`lumotlarni saqlash, axborotlar bankini hosil qilish hamda uni uzatish imkoniyatining yuqoriligi;

▶ foydalanuvchilarning markaziy axborotlar bankiga kirishlarining osonligi;

▶ hisoblash, ma`lumot qidirish, axborot kiritish va qo`shish faoliyatining dasturlashganligi;

▶ o`quv faoliyatini boshqarish, o`zlashtirishni nazorat qilish hamda information metodik ta`minot jarayonlarining avtomatlashganligi va boshq.

Pedagogik jarayonda qo`llanilayotgan yangi axborot texnologiyalari vositalari orasida dasturli vositalardan foydalanishni ta`minlash lozim. Dasturli vositalar ishlab chiqish o`ta murakkab jarayon bo`lib, o`qituvchilar, metodistlar, psixologlar, dizaynerlar va boshqa mutaxassislarning o`zaro hamkorligini taqozo etadi. Dasturli vositalardan ta`lim amaliyotida keng foydalanish keyingi yillar davomida amalga oshirilib kelinmoqda. O`qitish uslubiyoti nazariyasida dasturli vositalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy jihatlari tadqiq qilinmoqda hamda uning nazariy masalalari⁷ ochib berilmoqda.

Ayniqsa, kompyuterli modellashtirishni qo`llash, ko`rgazmali vositalarni kiritish, dialog o`tkazishning turli vositalaridan foydalanish laboratoriya va amaliy mashg`ulotlarni tashkil etish va o`tkazishga yo`naltirilgan dasturli vositalarni qo`llash samaradorlikni oshiradi

Ta`lim jarayonida dasturli vositalarni qo`llash imkoniyatining tahlili quyidagilarni ko`rsatadi:

- dasturli vositalarni qo`llash kompyuter savodxonligini shakllantirishga, murakkab real vaziyatda optimal qaror qabul qilish, mustaqil izlanish, alohida ma`lumotlar yoki butun bir axborotlar banki bilan ishlash borasida ko`nikma va malakalarini shakllantirishga yo`naltirilganligi jihatidan ta`lim-tarbiya jarayoni bilan uyg`unlikka ega;

⁷ Шейнис А.И. Компьютеры на уроках географии. География и экология в школе XXI века. 2002 г, №3

- dasturli vositalarning didaktik mohiyati zamonaviy kompyuter grafikasi imkoniyatlaridan foydalanish natijasida ko`rgazmalilikning kuchaytirilganligi bilan tavsiflanadi;

- dastur tuzuvchilar tomonidan o`quv motivlarini kuchaytirishga, o`quvchilarning nafosat tarbiyasiga ko`maklashuvchi turli «ijodiy ekran»lar tashkillashtirishga, ya`ni, ta`limiy dizaynga e`tiborning qaratilishi dasturli vositalar jozibadorligini oshirib, pirovardda ular samaradorligiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi;

- ta`limda o`yin faoliyatini tashkil etish va maqsadga yo`naltirish, boshqarishga yo`naltirilgan;

- dasturli vositalarlarda o`quvchiga kompyuterda ishlash rejimini tanlash imkoniyati yaratilgan bo`lib, bu o`z navbatida ta`limning liberallashtirishiga mos kelib, o`quvchida tashabbus ko`rsatish, o`z uslubi va yondashuvini ishlab chiqish, takliflarini, shu orqali o`z manfaatlarini ifoda etishni rag`batlantiradi;

- dasturli vositalarlardan foydalanish muayyan uslubiyotga qat`iy taalluqlilik kasb etmaydi va ta`limning qo`shimcha vositalarini qo`llashni taqozo etmaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarining imkoniyatlari, ularni qo`llashning maqsadga muvofiqligi zamonaviy axborot texnologik vositalardan an`anaviy uslubiyotni qo`llash uchun emas, balki variativ metodika yaratish uchun foydalanishni taqozo qiladi. Xususan, geografiya ta`limida bunday uslublarni quyidagilarga yo`naltirish maqsadga muvofiqdir:

- ▶ o`quvchilarda geografik tasavvurni to`g`ri shakllantirish;
- ▶ geografik tafakkurni, fikrlashni rivojlantirish;
- ▶ mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish;
- ▶ informatsion ta`lim va eksperimental tadqiqotni amalga oshirish malakalarini rivojlantirish;
- ▶ estetik idrok etishni rivojlantirish;
- ▶ shaxsning kutilmagan vaziyatda qaror qabul qilish jarayonida ijodiy tashabbus ko`rsatish imkoniyatlarini rivojlantirish va boshqalar.

Katalog — so`ziga izohlar keltirsak:

1. Izlab topish qulayligini hisobga olib, tartibga solingan obyektlar ro`yxati.

2. Informatikada bir xil turdagi obyektlar orasidan qidirishni ta`minlaydigan ma`lumotlarning tuzilmasini aniqlovchi ma`lumotnoma. Obyektlar sifatida ma`lumotlar elementlari, fayllar, dasturlar, serverlar, mijozlar, printerlar, magnitli va optik to`plovchilar va boshqalar bo`lishi mumkin.

3. Amaliy tizimlarda talab qilingan ma`lumotlar yig`masini o`z ichiga olgan jild joylashgan yerini topish uchun boshqaruvchi dastur tomonidan ishlatiladigan indekslar majmui.

4. Veb — resurslar katalogi – bu tasvirlari bilan birga berilgan Internet resurslariga tizimlashtirilgan va rubrikator asosida tartibga solingan murojaatlar termasi. Kataloglar ixtisoslashgan (soha bo`yicha) va umumiy hamda xududiy, milliy va global turlarga bo`linadi.

Kartografik qo`llanmalar tayyorlashga majmualiy yondashuvda geografik kartalarning xususiyatlaridan kelib chiqib, an`anviy yondashuvlar bilan zamonaviy yondashuvlar qilish davr talabi ekanligini xisobga olamiz. Bunda ishning nazariy qismida o`rganilgan kartografik usullar va kompyuter dasturlari xususiyatlari xamda xorijiy kartografik qo`llanmalar tayyorlashdagi yondashuvlar namuna sifatida olindi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi yuzasidan uning ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlash maqsadida anketa-so`rov ishlari amalga oshirildi. Avval, tadqiqot ishimizning yondashuvidan kelib chiqib, o`qituvchilardan og`zaki so`rovlar hamda anketa savolnomalari yordamida ularning darslariga yondashuvlarini va fikrlarini o`rgandik. Aniqlangan xolatlardan kelib chiqib, ularga tegishli uslubiy yordamlar berish, elektron kartografik qo`llanma (katalog) tayyorlash zaruratini aniqladik. (O`tkazilgan anketa-so`rov blankalari ilova qismida joylashtirildi).

So`rovlar ishimiz ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirishda hamda o`qituvchilar ish faoliyatida zaruriy uslubiy yordam beruvchi xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo`ldi.

Anketada berilgan savollar:

- Siz darslarda kompyuterdan foydalanasizmi?

- Geografiya ta`limi jarayonida qanday ta`lim vositalaridan foydalanasiz?
- Ta`lim vositalarini tasniflay olasizmi?
- Geografiya xonasida qanday kartografik qo`llanmalar mavjud?
- Siz darslar uchun turli rasm, chizma, musiqalar, video roliklar jamlaganmisiz?
- O`quv xonangizda kompyuterdan foydalanish imkoniyati bormi?
- Sizda fanga oid qanday multimedia ilovalari mavjud?
- Qaysi sinf uchun multimedia darsliklari mavjud?
- Multimedia ilovalarini darsning qaysi qismida foydalanasiz?
- Multimedia ilovalarini o`zingiz yarata olasizmi?
- Darslar uchun elektron kartalar va undan foydalanish bo`yicha uslubiy tavsiya kerakmi?

2.2. Tabiiy geografiya darslari uchun kartografik katalog yaratish.

Biz kartografik katalog tayyorlashda UNESKO tomonidan ta`lim tizimida samarali foydalanish uchun taqdim qilingan bir qator dasturlar orasidan AutoPlay_Media_Studio dasturini tanladik. Dastavval bir qator tabiiy geografik kartalarning elektron variantlarini jamlab, klassifikatsiya bo`yicha tartibladik.

Umumiy o`rta ta`limning Geografiya fanidan davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi (5-9-sinf) asosida maktablarga tavsiya etilgan o`quv darsliklari va atlaslari o`rganib chiqildi.

Bunda to`plangan xaritalarni dasturga moslashtirish uchun qaytadan tahrirlanib chiqildi ya`ni dastur ekraniga moslashtirildi.

Bizga ma`lumki, xaritalar quyidagicha klassifikatsiya qilingan:

Tabiiy-geografik kartalar:

1. Geologik, stratigrafik, tektonik, litologik, uchlamchi davr, to`rtlamchi davr, gidrogeologik, geoximik, foydali qazilmalar, seysmologik, vulkanizm kartalari va boshqalar.

2. Umumiy tabiiy geografik kartalar.

3. Geofizik kartalar.

4. Yer yuzasi relyefi: gipsometrik, morfometrik, morfografik, geomorfologik kartalar.

5. Meteorologik va iqlim: harorat, shamollar, yog`in-sochin kartalari va h.k.

6. Okeanologik kartalar.


7. Hidrologik kartalar (er usti suvlari).

8. Tuproq va uning turlari hamda tarqalishi kartalari.

9. O`simlik va ularni geografik joylashish kartalari.

10. Hayvonot dunyosi va ularning tarqalish kartalari.

11. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik kartalar.⁸



11-rasm. Kartalarning tasniflanishi

AutoPlay_Media_Studio_8.5.0.0 dasturida elektron kartografik katalog yaratish uchun quyidagi amallarni amalga oshirish kerak. Quyidagi oynadan ko`rinib turibdiki, dasturni ishga tushirgandan so`ng “Create a New Project” qismini bosiladi (12-rasm). Albatta bu amal siz yaratmoqchi bo`lgan faylingizga asos bo`ladi.

Отформатировано: Шрифт: полужирный

Отформатировано: По центру, Отступ: Первая строка: 1,25 см, интервал После: 12 пт



⁸ Mirzaliyev T. Kartografiya: darslik. -T.: O`zMU: 2004 y. 94 b.

0012-rasm. “Create a New Project” oynasi

Shundan so`ng ekranda “Select a Template” oynasi paydo bo`ladi. Undan siz xohlagan ko`rinishni tanlaganingizdan so`ng “Да” va “Нет” buyruqlari ekranda namoyon bo`ladi. “Да” buyrug`ini bosasiz va siz yaratmoqchi bo`lgan dasturni ishchi oynasi ochiladi.


Ushbu dasturning tabiiy xaritalar qismida Dunyo hamda materiklar kesimida mavzulashtirilgan holda turli xil manbalardan foydalanib kartalar joylangan.

Dasturga kirganingizda quyidagi oyna paydo bo`ladi (13-rasm):



13-rasm. “Bosh sahifa” oynasining ko`rinishi

Undan “Tabiiy xaritalar” bo`limiga sichqonchani chap tugmasi bir marta bosiladi va sizga ushbu bo`limga tegishli oyna ochiladi. Bundan tashqari ushbu ishchi oynada yuqoridagi rasmda ko`rinib turgan bo`limlar ham mavjud.



14-rasm. “Tabiiy xaritalar” bo`limi

Ushbu bo`limdan siz o`zingizga kerakli bo`limni tanlaysiz va sizga tanlangan bo`lim yuzasidan mavzulashtirilgan qism ochiladi. Bu yerda ko`rinib turganidek quyidagilar aks etgan (14-rasm):

- Dunyoning tabiiy xaritalari;
- Yevrosiyo;
- Afrika;
- Shimoliy Amerika;
- Janubiy Amerika;
- Avstraliya;
- Antarktida.

Bundan tashqari “Bosh sahifa” qismi ham bor bo`lib undan birinchi sahifaga qaytish uchun foydalaniladi.

Yuqoridagi bo`limdan siz masalan “Afrika” yozuvi ustiga sichqonchani chap tugmasini bosgan bo`lsangiz sizga quyidagi oyna ochiladi (15-rasm):



15-rasm. “Afrika” materigi tabiiy xaritalari bo’limi


Bu yerda ko`rinib turganidek bo`limlar joylashgan, ya`ni:

- Geologik xaritasi;
- Ichki suvlari;
- Iqlim xaritasi;
- Tabiat zonalari;
- Tabiiy geografik xaritalar.

Yuqoridagilardan tashqari qo`shimcha 2 ta buyruq ham mavjud. “Bosh sahifa” buyrug`i orqali birinchi sahifaga, “Ortga” buyrug`i orqali oldingi sahifaga qaytish mumkin.

Ko`rinib turgan oynadan sizga kerakli mavzu bo`yicha xaritalar to`plami joylashgan. Masalan siz 6-sinf “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursining materiklar va okeanlar tabiati bobi Afrika bo`limining “18-§. Afrika materigining geografik o`rni va o`rganilish tarixi” mavzusini olib borayotgan bo`lsangiz, yuqoridagi oynadan “Tabiiy geografik xaritalar” bo`limini bosasiz. Shunda sizga turli xil tillarda va xar xil manbalardan olingan xaritalar to`plami ochiladi. Bu joyda sizga Afrika materigining tabiiy geografik qismiga tegishli xaritalar ochiladi (16-rasm). Yuqoridagi oynada ko`rinib turgan xarita sizga yetarli

bo`lmagan bo`lsa, “Davomi” buyrug`ini bosish orqali davom ettirishingiz mumkin. Agarda xaritaning sifati sizga muammo tug`dirsa, oynadagi xarita ustiga sichqonchani o`ng tugmasi bosiladi. Shundan so`ng sizga kartaning haqiqiy holati ekranda namoyon bo`ladi.




16-rasm. “Afrika” materigi tabiiy geografik xaritasi

Endi esa ushbu xaritalarni joylash uchun ya`ni “Tabiiy xaritalar” bo`limini yaratish uchun bajarilgan amallar ketma-ketligini ko`rsatib o`tamiz.

1. Dastur ishga tushirilib “Create a New Project” buyrug`i tanlanadi. Yuqorida ta`kidlanganidek siz o`zingiz uchun qulay fonni tanlaysiz va ishchi oyna ochiladi;


2. “Project” bo`limining “Setting” buyrug`idan sizga kerakli hajmni, dastur nomini, ko`rinish usulini, versiyasini va boshqa ko`plab funksiyalarni o`zgartirib olinadi (17-rasm);



17-rasm. “Project Settings” oynasi


3. Shundan so`ng “Page” buyrug`iga sichqonchani o`ng tugmasini bir marta bosiladi va unda “Add” buyrug`i orqali yangi sahifalar ochib olinadi;

4. “New Image Object” buyrug`i orqali istalgan xaritani joylanadi va tanlangan ekran hajmiga moslash uchun xaritani ustiga sichqoncha chap tugmasi ikki marta bosiladi. Quyidagi oyna paydo bo`ladi (18-rasm):



18-rasm. “Image Proterties Image” oynasi

5. “New Button Object” buyrug`i orqali yuqorida ta`kidlanganidek “Bosh sahifa”, “Ortga” hamda “Davomi” kabi tugmalarni tayyorlanadi. Ushbu buyrug`ni bosganingizda turli xil ranglardan iborat geometrik shakllar paydo bo`ladi. Shulardan siz o`zingiz uchun ma`qul geometrik shaklni tanlaysiz. Ekranida siz tanlagan shakl paydo bo`ladi va uni siz qulay joyga joylashtirasiz. Shaklni ustiga sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosiladi va unga nom beriladi. Shundan so`ng “Quick Action” buyrug`iga o`tiladi va kerakli “page” ga yo`naltiriladi (19-rasm);



19-rasm. “Button Properties Button4” oynasi

6. Shu tarzda hamma “button” lar joy joyiga qo`yib chiqiladi. Xaritani ham joylab ekranga moslashtirgandan so`ng keyingi “Page” larga o`tib yuqoridagi amallar ketma-ketlikda bajariladi.

Yuqoridagi amallarni bajarish orqali tabiiy geografik mazmunga ega bo`lgan xaritalardan tuzilgan katalog yaratiladi. Bu esa o`qituvchilarga darslarni davlat ta`lim standarti va dasturidan kelib chiqqan holda o`quvchilarga kerakli bilimni berishlariga ko`makchi bo`ladi.

2.3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslari uchun kartografik katalog yaratish.

Bu paragraf bo`yicha Ijtimoiy-iqtisodiy geografik kartalarning elektron variantlarini jamlab, klassifikatsiya bo`yicha tartibladik.

Ijtimoiy-iqtisodiy kartalar:

1. Aholi va demografik kartalar: aholining joylanishi va tarqalishi, zichligi, aholining milliy tarkibi, etnografiyasi, jinsi, tug`ilish va o`lim, yoshi, ishsizlik, ishga layoqatliligi kartalari va hokazolar.

2. Iqtisodiy: tabiiy resurslar va ularni baholash, sanoat, qishloq xo`jaligi (dehqonchilik, chorvachilik) va o`rmon xo`jaligi, transport, ichki va tashqi iqtisodiy aloqalar, umumiy iqtisodiy kartalari.

3. Maishiy xizmat: maorif, fan, madaniyat, sog`liqni saqlash, savdo va moliya, fizkultura va sport, turizm, maishiy xizmat kartalari va hokazolar.

4. Siyosiy-ma`muriy kartalar.⁹

Bizga ma`lumki maktablarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid bilimlar asosan 8-9 sinflarda o`qitiladi. 8-sinfda “O`zbekiston iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi” va 9 sinfda “Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi” o`quv kurslari maktablarda o`qitiladi.

8-sinf uchun «O`zbekistonni iqtisodiy va ijtimoiy geografik atlasini» da (Toshkent, 2014) 40 ga yaqin karta berilgan. Atlasda sanoat va qishloq xo`jaligiga tegishli original kartalar ham mavjud. Lekin umumiy iqtisodiy kartasini yo`qligi uning asosiy kamchiligidir. Atlasda iqtisodiy geografik rayonlar kartasi ham o`z ifodasini topgan.

9-sinf uchun mo`ljallangan Dunyoning ijtimoiy va iqtisodiy geografik atlasini (Toshkent, 2014), jahon iqtisodiy geografiyasini o`rganishda asosiy qo`llanma bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu o`quv kurslarini qo`shimcha kartalar bilan ta`minlash uchun biz ushbu dasturda “Iqtisodiy xaritalar” bo`limini ham qo`shdik.

Endi dasturda keltirilgan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid xaritalar majmuasi va uni yaratilishiga qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Dasturni ishga tushirgandan so`ng yuqoridagi (13-rasm) oyna ochiladi va undan “Iqtisodiy xaritalar” bo`limi tanlanadi.

Shundan so`ng sizga dunyoning siyosiy ma`muriy xaritasi ko`rinadi. Unda har bir materiklar kesimida hamda butun dunyo iqtisodiy ijtimoiy xaritalari titrlari paydo bo`ladi siz undan o`zingizga kerakli mavzu bo`yicha yozuv ustiga sichqonchani chap tugmasini bir marta bosish orqali kirasiz.


Ushbu bo`limda siz quyidagicha xaritalar to`plamiga ega bo`lasiz:

“Dunyoning iqtisodiy xaritalari” deb nomlangan ruknda – “Aholi xaritalari” bo`limi hamda uning ichida aholi zichligi kartasi va dunyo xalqlari tarqalishi

⁹ Mirzaliyev T. Kartografiya: darslik. –T.: O`zMU. 2004 y. 94 b.

kartalari ko`rinadi. “Siyosiy ma`muriy xaritalar” bo`limida dunyoning siyosiy xaritalari (o`zbek, rus, ingliz) jpylangan. Eng ko`p xaritalar to`plami “Sanoat va qishloq xo`jaligi xaritalari” (20-rasm) bo`limida jamlangan bo`lib unda quyidagicha kartalar joylashgan;

1. Kimyo sanoati;
1. Yengil sanoat;
2. Mineral resurslar;
3. Yer resurslari;
4. Energetika;
5. Qora metallurgiya;
6. Rangli metallurgiya;
7. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash;
8. Qishloq xo`jaligi;
9. Transport;
10. Dunyoning ekologik muammolari



20-rasm. “Sanoat va qishloq xo`jaligi xaritalari” bo`limi


“Dunyo tillari” bo`limida ham til oilalarini tarqalishini ko`rsatuvchi xaritalar mavjuddir.

Bundan tashqari “Iqtisodiy xaritalar” bo`limiga kirganda har bir materik bo`yicha ham iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan xaritalar joylangan.

Dastur imkoniyatlaridan foydalanib geografiya fani dars va darsdan tashqari o`quv-tarbiyaviy mashg`ulotlarda keng foydalanish uchun yagona elektron


muhitda kartografik katalog tayyorlandi. Katalogning to'liq rasm shakli ilova qismida joylashtirildi.

Endi esa iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslari uchun kartografik katalog yaratish bo'yicha bajarilgan ishlar ketma-ketligi bilan tanishtirib o'tamiz. Dastavval "Page2" oynasiga iqtisodiy va ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan xarita joylanadi (21-rasm). Ushbu xaritani kompyuter monitoriga moslashtirib chiqiladi. Unga esa avvalgi paragrafda to'xtalib o'tilganidek "button" va "label" har bir materik kesimida yozib chiqiladi. Shundan so'ng har bir belgiga sichqonchani o'ng tugmasini ikki marta bosish orqali "page" belgilanadi.




21-rasm. Dunyoning iqtisodiy xaritalari bo'limi

Iqtisodiy va ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan xaritalar, ayniqsa dunyoning xaritalari monitorga moslashgan taqdirda, uning sifati pasayishiga olib keladi. Buni bartaraf etish uchun esa ushbu xaritani ustiga sichqonchani o'ng tugmasini 2 marta bosish orqali "Image Properties" bo'limiga kiriladi (22-rasm) . U joydan esa "Settings" qismidan "File" buyrug'iga kartaning joylashgan nuqtasi "Browse" qismidan ko'rsatib o'tiladi. Shunda kartaning haqiqiy holati ekranda namoyon bo'ladi.



22-rasm. “Image Properties” bo’limi

Endi esa “label” ni havola orqali yo’naltirish haqida to’xtalib otamiz. Masalan “Dunyoning iqtisodiy xaritalari” labelini ustiga sichqonchani o’ng



tugmasini ikki marta bosish orqali ”Label Properties” bo’limiga kiriladi (23-rasm).

23-rasm. ”Label Properties” bo’limi

Ushbu oynadan “State Colors” buyrug’idan yozuvning rangi va boshqa parametrlarini to’g’rilanadi. “Object” bo’limining “Font” buyrug’idan esa

yoʻzuvning shrift koʻrsatkichlari toʻgʻrilanadi. Keyin esa “Quick Action” boʻlimiga oʻtiladi va “Action to run” qismidan “Show page” buyrugʻini belgilanadi. Shundan soʻng “Page to show” qismidan “Specific Page” buyrugʻini hamda “Page name” qismidan kerakli sahifani belgilash orqali ushbu labelga havola belgilanadi.

Har bir “label” ga shu tariqa havolalar qoʻyib chiqiladi va belgilangan “page” larga kerakli xarita joylanadi.

Shunday qilib yuqorida koʻratilgan amallarni bajarish orqali iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslari uchun kartografik katalog yaratiladi.

XULOSA

Respublikamizning zamonaviy taraqqiyot yoʻliga oʻtishidagi yangilanishlar jamiyatimizda demokratik va insonparvarlik gʻoyalari toʻla rioya qilish, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy munosabatlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar

asosida tubdan o'zgartirish, ilg'or rivojlangan davlatlarda qo'lga kiritilgan yutuqlarni tanqidiy va tahliliy o'rganish, ularni respublikamiz shart-sharoitlarini hisobga olgan holda hayotga joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Tabiiyki, bu jarayondagi muvaffaqiyatlar ma'naviy yetuk, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlar, shuningdek bo'lg'usi hayoti va mehnat faoliyatiga shaxsiy va kasbiy jihatdan tayyor bo'lgan yosh mutaxassis kadrlar tayyorlanishiga chambarchas bog'liqdir. Bu vazifalarni bajarish ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar, individual va differentsiyalashgan ta'lim kabi texnologik yondashuvlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bunday yondashuvlar axborot-kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish yo'li bilan ularning pedagogik va didaktik funksiyalari ochib beriladi.

Yaratayotgan pedagogik-texnologik innovatsiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini, faolligini, ma'suliyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi, kam vaqt oralig'ida yuqori natijani ta'minlay olishiga erishish lozim. Bitiruv ishida ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish va o'qitishni tashkillashtirishda ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini yangilab borish bilan chambarchas bog'liq nazariy va amaliy yechimlar topildi. Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish, darslar uchun turli ta'lim vositalari, jumladan elektron kartografik qo'llanma (katalog) tayyorlash yo'llari va uslublari hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha yondashuvlari ko'rsatib berildi.

Quyidagi vazifalar bajarildi:

- ko'rgazmali ta'lim vositalaridan foydalanishning psixologik-pedagogik asoslari o'rganib chiqilib, ko'rgazmalilik mohiyati va uning shakllari ochib berildi;
- elektron kartalardan va ulardan foydalanish shart-sharoitlarini taxlil qilindi;
- elektron katalog yaratish bo'yicha tajribalar o'rganildi;
- geografiya darslarida elektron kartalardan foydalanishning uslubiy sharoitlarini o'rganib chiqish va tanlandi;

- fan dasturlari va darsliklari bo`limlari bo`yicha elektron kartografik katalog tayyorlash uchun dasturlar va uslubiyotni aniqlandi;

- geografiya darslari uchun kartografik katalog tayyorlandi.

BMI natijalari uzluksiz geografiya ta`limi uchun elektron ta`lim vositalari yaratish va ulardan samarali foydalanish uslubiy-tavsiyasini beruvchi hamda ishni bajarish davomida olingan xulosalar o`qituvchilarning kompetentligini oshirishda, shuningdek, o`qituvchilarning ta`lim vositalaridan majmualiy foydalanishda, shaxsiy axborot bazasini shakllantirish va to`ldirib borishda amaliy-uslubiy asos bo`lib xizmat qiladi. Shuningdek, katalog geografiya fani o`qituvchilariga, barcha yo`nalish talabalariga turli illyustrasiyalar tayyorlashda amaliy-uslubiy ko`rsatma sifatida xizmat qiladi.

O`quvchi-yoshlarga o`quv-bilish ko`nikmalarini shakllantirish, mustaqil ijodiy faoliyat bilan shug`ullanishni tarbiyalash lozim. Buning uchun pedagoglarning yangilikni qo`llashga tayyorgarligi, pedagogik yangiliklarni qabul qilishi, ijodkorligi kabi innovatsion yondashuv qobiliyati yuqori saviyada bo`lishi lozim.

2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishlari bo`yicha Harakatlar Strategiyasi 4-asosiy yo`nalishi - Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari bandlarida mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta`lim muassasalarini kompyuter texnikasi va o`quv-metodik qo`llanmalar bilan jihozlash bo`yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko`rish hamda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag`batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish kabilar ko`zda tutilgan. Mazkur tadbirlarni amalga oshirishda biz pedagoglar bevosita shu yo`nalishdagi islohotlarning ishtirokchisi sifatida o`z munosib hissamizni qo`shmog`imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T., 2014.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild. –T.: O`zbekiston, 1996. -367 b.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. Asarlar, 5-jild. –T.: O`zbekiston, 1997. - 360 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Ilm–fan yutuqlari – taraqiyotning muhim omili. “Ma`rifat” gazetasi №: 104. 2016 yil 31 dekabr.
5. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma`ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O`zbekiston», 2017. - 104 b.
6. Mirziyoyev Sh.M., Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq. Toshkent - «O`zbekiston» - 2016
7. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.
8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.
9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 07.02.2017 y. PF-4947 O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida. "Xalq so`zi", 2017 yil 8 fevral.
10. Internet jahon axborot tarmog`ida milliy kontentni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

Qarori 14.08.2017 y. N625 "O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami", 2017 yil 21 avgust, 33-son, 858-modda

11. Axborotlashtirish to`g`risida O`zbekiston Respublikasining Qonuni. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 y., 1-2-son, 10-modda; O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2014 y., 36-son, 452-modda

12. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 apreldagi 87-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O`zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi to`g`risida»gi Nizom. LexUZ sharhi.

13. Abduraxmonov B.M. Geografik madaniyatni shakllantirishda axborotni ifodalovchi tasviriy ko`rsatmalardan foydalanish // Fan, ta`lim, madaniyat va biznes soxalarida Internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish. Xalqaro ilmiy –amaliy anjuman materiallari, Toshkent –Samarqand. 2004. 207-208 bb.

14. Abduraxmonov B. M. Geografiya ta`limida Internet resurslaridan samarali foydalanish. Mexnat va kasb - ta`limi bakalavriat yo`nalishlarida muxandislik fanlarini o`qitishning dolzarb masalalari.// Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 1-qism Namangan. 2005. 26-28 bb.

15. Abdurahmonov B. M., Turdaliev I. E. Geografik madaniyatni shakllantirishda zamonaviy ta`lim vositalarining ahamiyati. Farg`ona vodiysi: tabiati, aholisi, xo`jaligi. Farg`ona vodiysi geograflarining xalqaro ilmiy seminari materiallari to`plami. Farg`ona. 2018. 113-116 bb.

16. Abduqodirov A., Yaqubov S.X., Mamajonova G.X. "Informatika" Qisqa kurs. Toshkent "O`qituvchi", 2002.

17. Агеев В.Н. Современные электронные учебные издания: принципы организации и внедрения / В.Н. Агеев. –М.: МГУР, 2003. –236 с.

18. Александров Г.Н. Программированное обучение и новые информационные технологии обучения / Г.Н. Александров // Информатика и образование. –1993. –№ 5. –С. 7-24.

19. Aripov M., Haydarov A. “Informatika asoslari”. Toshkent “O`qituvchi”, 2002.
20. Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. – T.: O`zMU. 2000.
21. Axmedov A.B, Toylaqov N.I. “Informatika”. Toshkent “O`zbekiston”, 2002.
22. Baratov P., G`ofurov A., Toshmuhamedov R. “Tabiatshunoslik” Cho`lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent -2006
23. Bahromov A. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 3-sinfi uchun Tabiatshunoslik darsligi, darslik muallifi Akbar Bahromov Ikkinchi nashr. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosh tahririyati. Toshkent-2010.
24. Bahromov A. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 4-sinfi uchun Tabiatshunoslik darsligi. Uchinchi nashr. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2015
25. Gaziev A. Multimedia resurslari – zamon ehtiyoji: [Milliy kutubxonada] // INFOLIB. – 2015. – № 1. – B. 56–57.pdf 150 Kb.
26. Grigoryans A.G. Raximova M.A.. «Atrofimizdagi olam». Toshkent. «O`qituvchi». 1997.
27. «Дидактические свойства сети Интернет в гуманитарном образовании школьников», <http://college.biysk.secna.ru>
28. «Дидактические свойства Интернет, используемые в сетевых курсах», <http://www.iet.mesi.ru/>
29. Душина И.В. Педагогические технологии обучения географии. «География в школе» -2001. -№3 –стр. 49-53.
30. Jo`raev T., Alimov X. “Informatika texnologiyalari”, Toshkent, “O`zbekiston”, 2003.
31. Jo`rayev R.X., Tayloqov N. Axborotlashgan ta`lim muxiti-o`qitish samaradorligini oshirish vositasi. Uzluksiz ta`lim № 3. 2005 y. 5-12 bb.
32. Jo`rayev T.I. Uzluksiz ta`lim: muammolar va yechimlar. Uzluksiz ta`lim № 1. 2005. 5-11 bb.

33. Коган В.З. Человек: информация, потребность, деятельность /–Томск : Изд-во Томск.ун-та, 1991. –191 с.
34. Коджаспирова Г.М. Технические средства обучения и методика их использования: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений/. –М. : Академия, 2001. –256 с.
35. Matchonov S., G`ulomova X. va boshqalar. Boshlang`ich sinf o`qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent, “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.
36. Mahmudova M. Tabiatshunoslik ta`limida tarixiy adabiyotlar. 2002 y, Toshkent, 4-son 89-90 bb.
37. Maqulova B.. «O`qishga qiziqishni oshirish». Boshlang`ich ta`lim.3-4-sonlar. 1995.
38. Mirzaliyev T. Kartografiya: darslik. –T.: O`zMU. 2004 y..
39. Munavvarov A.K. «Pedagogika». Toshkent. «O`qituvchi». 1996.
40. Nurmuxammedova N. Tabiatshunoslik darslarida didaktik o`yinlar. Toshkent, 2003, 1-2 son, 18-19 bb.
41. Hasanboyeva O., Jabborova H., Nodirova Z. “Tabiat bilan tanishtirish metodikasi” Cho`lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent -2006
42. Ro`zmatov S.K. “Kompyuter savodxonligi”. Toshkent, 2006 y.
43. Safarova R. O`quvchilarning bilim sifatini oshirish. Xalq ta`limi №1. 2005. 14-19 bb.
44. Tayloqov N. Elektron darslik yaratishga qo`yiladigan talablar. Xalq ta`limi № 2. 2005. 17-20 bb.
45. Teshaboeva U. Zamonaviy ta`lim muvaffaqiyatlar kalitidir: [O`zbekiston Milliy kutubxonasida soha mutaxassislarining malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimiga qaratilgan keng ko`lamli ishlar amalga oshirilmoqda]// INFOLIB. – 2015. – № 3. – B. 4–7.pdf 209 Kb.
46. Фарберман Б.Л. Передовые педагогические технологии. Фан. Ташкент. 2000.


47. Филатова Н.Б. Компьютер на уроке географии. География в школе. 2001 №2 -стр.51
48. Shojalilov A. Ta`limda pedagogik texnologiya. Toshkent, 2002 y, 6-son, 77-79 bb.
49. Шейнис А.И. Проведение дистанционного исследовательского проекта через Интернет в географии. География в школе. 2000. №5 стр-71
50. Yuldashev U., Boqiev R., Zokirova F. “Informatika”, Toshkent, “O`zbekiston”, 2002 y.
51. Yunusova G.N. Axborot texnologiyalari muxitida fizika o`qitish nazariyasi va uslubiyoti. Uzlusiz ta`lim № 1. 2005. 17-29 bb.
52. Qosimov S.S., Axborot texnologiyalari. O`quv qo`llanma. Toshkent. Aloqachi. 2006 y.
53. G`ulomov S.S., Shermuxamidov A.T., Lutfullaev X.S., Nazorova G.G., Alimov R.X., “Axborot tizimlari va texnologiyalari”, Toshkent, Sharq, 2000 y.
54. Hamdamov U.R., Elov J.B., “Kompyuter savodxonligi bo`yicha o`quv qo`llanma”, Toshkent 2010 y.

IV. Internet manbalari


1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. <http://www.techsmith.com>
4. <http://www.mytube.uz>
5. <http://www.google.com>
6. <http://www.yandex.ru>
7. <http://www.lex.uz>
8. <http://www.connect.uz>
9. <http://www.e-biblioteka.namsu.uz>
10. <http://www.tdpu.uz>
11. <http://www.geo-mes.ru>

ILOVALAR

1-ilova






Geografiya ta'limining majmuaviy metodik ta'minoti




Elektron nashrlar, kartografik ilovalar




Интерактив kartalar




- При работе с электронной картой
- приближать выбранные участки более детального рассмотрения
 - снимать часть обозначений, упрощая карту, делая ее более наглядной
 - делать рисунки и наносить надписи
 - карты и слои разных карт можно совмещать, что позволяет выявлять причинно-следственные связи и зависимости



...вен привязанный к координатам и текстовой информации



Xorijiy elektron ilovalar va trenajorlar



АНКЕТА САВОЛЛАРИ

Суроовда иштирокингиз учун раҳмат. Саволларга берган жавобларингиз тадқиқот ишнинг илмий-амалий аҳамиятини оширишида ҳамда Сиз ва касбдошларингиз иш фаолиятига зарурий услубий ёрдам берувчи хулосалар ва таъсиللр ишлаб чиқишида асос бўлади.

№	Саволлар	Ха (ёки жавобингиз)	Йўқ (ёки жавобингиз)
1	География таълими жараёнида қандай таълим воситаларидан фойдаланасиз?	Харита, Atlas, Globus, Playd, album, kubi	
2	Таълим воситаларини таснифлай оласизми?	Ха	
3	География хонасида қандай картографик қўлланмалар мавжуд?	Харита, Atlas, Globus	
4	Сиз дарслар учун турли расм, чизма, мусикалар, видео роликлар жамлаганми?	Ха	
5	Ўқув хонангизда компютердан фойдаланиш имконияти борми?	Бор	
6	Сизда Фашига оид қандай мультимедиа иловалари мавжуд?	Ҳар бир мавзуга оид.	
7	Қайси синф учун мультимедиа дарсликлар мавжуд?	5-9 синфлар	
8	Мультимедиа иловаларини дарснинг қайси қисмида фойдаланасиз?	Бosh қисмида.	
9	Мультимедиа иловаларини ўзингиз ярата оласизми?	Ха	
10	Географик маданият тушунчасига қисқа изоҳ берсангиз ...	Yer yuzasi tabiati, jahon davlatlari mustaqil o'zbekistoni va tabiati, aholisi, jumhuriyati, madaniyati, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti, hamkorlik bilan yashash.	

Анкета сшровларига иштирок этган шынтувчи

Вилоят Наманган
 ФИШ Rahmatillaeva N.

Туман (шахар) Ушбағчи

Мақтаб 24

АНКЕТА САВОЛЛАРИ

Суровда иштирокчисиз учун раҳмат. Саволларга берган жавобларингиз таъқиқот ишнинг илмий-амалий аҳамиятини оширишида ҳамда Сиз ва касбдошларингиз иш фаолиятига зарурий услубий ёрдам берувчи хулосалар ва тавсиялар ишлаб чиқишида асос бўлади.

№	Саволлар	Ҳа (ёки жавобингиз)	Йўқ (ёки жавобингиз)
1	География таълими жараёнида қандай таълим воситаларидан фойдаланасиз?	нафақат икк, қаримта	
2	Таълим воситаларини таснифлай оласизми?	Ҳа, илмий, таълимий демо, таълимий	
3	География хонасида қандай картографик қўлланмалар мавжуд?		Ҳа, 3
4	Сиз дарслар учун турли расм, чизма, мусикалар, видео роликлар жамлаганмисиз?		Ҳа, 3
5	Уқув хонангизда компьютердан фойдаланиш имконияти борми?		Ҳа, 3
6	Сизда Фанга оид қандай мультимедиа иловалари мавжуд?		Ҳа, 3
7	Қайси синф учун мультимедиа дарсликлари мавжуд?		Ҳа, 3
8	Мультимедиа иловаларини дарснинг қайси қисмида фойдаланасиз?		Ҳа, 3
9	Мультимедиа иловаларини ўзингиз ярата оласизми?		Ҳа, 3
10	Географик маданият тушунчасига қиска изох берсангиз ...	Дарсда мунча мунча оёқ тушибди ки таълимий саволга ўраганим	

Анкета суровларида иштирок этган шунтувчи

Вилоят Наманган
ФИШ Т. Арзиев

Туман (шаҳар) Чалқирон

Мақтаб 22

1990

Kartografik katalogning ko'rinishidan lavxalar

